

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
AVTOMOBIL YO'LLARI DAVLAT QO'MITASI**

**TOSHKENT AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASH, QURISH VA  
EKSPLUATATSIYASI INSTITUTI**

“Yo'l xo'jaligi iqtisodiyoti va uni tashkil etish” kafedrası

**“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan amaliy mashg'ulotlarni  
o'tkazish bo'yicha  
USLUBIY KO'RSATMA**

(Barcha noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari bakalavriat talabalari uchun)

Toshkent-2018

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha uslubiy ko’rsatma fan dasturi va ishchi o’quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

S.Yuldasheva – TAYLQEI, “Yo’l xo’jaligi iqtisodiyoti va uni tashkil etish” kafedrasini mudiri, i.f.n., dotsent.

B.G’iyosidinov – TAYLQEI, “Yo’l xo’jaligi iqtisodiyoti va uni tashkil etish” kafedrasini assistenti

**Taqrizchilar:**

B.Omonov – TAYLQEI, “Transport logistikasi” kafedrasini dotsenti, i.f.n., dotsent.

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan amaliyot mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha uslubiy ko’rsatma “Yo’l xo’jaligi iqtisodiyoti va uni tashkil etish” kafedrasining 201\_\_yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi majlisi muhokamasidan o’tgan va “\_\_\_\_” – son bayonnoma bilan tasdiqlangan.

“Yo’l xo’jaligi iqtisodiyoti va uni tashkil etish” kafedrasini mudiri:

201\_\_yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ S.Yuldasheva

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan amaliyot mashg’ulotlarni o’tkazish bo’yicha uslubiy ko’rsatma “Avtomobil yo’llari va suniy inshootlar” fakulteti IUKengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (201\_\_yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ “\_\_\_\_” – son bayonnoma).

TAYLQEI, “Avtomobil yo’llari va suniy inshootlar” fakulteti dekani v.v.b.:

201\_\_yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ B.Mirzaaxmedov

## **Amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar, keys stadi,vaziyatli masalalar va testlar**

### **1-Mavzu: "iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va bilish uslublari. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari.**

Iqtisodiyot nazariyasini o'rganish, iqtisodiy jarayonlarning tub mohiyatini to'g'ri tushunish ko'p jihatdan uni o'rganuvchilarning ma'lum nazariy va uslubiy bilim bilan qurollanishiga bog'liq. Shuning uchun ham mazkur mavzu insoniyat jamiyati taraqqiyotining asosi bo'lgan iqtisodiyot tushunchasini, uning oldida turgan vazifalarni, uzoq davr davomida iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishini qisqacha tavsiflash bilan boshlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi asosiy oqimlar va nazariyalarning umumiy bayoni qisqacha beriladi. Bu yerda iqtisodiyot va uning bosh masalasi, iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, vazifalari va boshqa iqtisodiy fanlar ichida tutgan o'rnini ko'rsatib berish bilan birga iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar hamda ularning amal qilish mexanizmini yoritib berishga alohida o'rin beriladi.

Bu mavzuda iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilish usullarining mazmunini ochib berishga alohida e'tibor qaratiladi.

#### **Test**

I.Iqtisodiyotning bosh masalasi va doimiy muammosi:

- a) nima, qanday, qancha va kim uchun ishlab chiqarish;
- b) ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qancha ishchi kuchi sarflash

kerak;

- v) davlatning milliy daromadini qanday oshirish mumkin;
- d) to'g'ri javob yo'q.

2. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?

- a) ijtimoiy munosabatlarni o'rganish;
- b) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo'jaliklarni samarali yuritishning

iqtisodiy qonun-qoidalarini o'rganish;

- v) huquqiy munosabatlarni o'rganish;
- d) tabiiy jarayon va hodisalarni o'rganish.

3. Ehtiyoj - bu

- a) talab;
- b) hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat;
- v) iste'mol jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vosita;
- d) to'g'ri javob yo'q.


4. Ishlab chiqarishning asosiy omillari:

- a) xom-ashyo va ishlab chiqarish texnologiyasi;
- b) mehnat va ishlab chiqarish resurslari;
- g) ishchi kuchi, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyati;


d) hamma javoblar to'g'ri.

5. Umumiy faktlardan hususiy faktlarga tomon harakat bu....?

- a) induksiya
- b) deduksiya
- g) abstraksiya
- d) sintez



**Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish jarayonlaridagi harakati**



**Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik**



### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering?
4. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va etkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiylari hisoblanadi?
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rin tutadi?
6. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishida qanday ilmiy maktab va yo'nalishlar vujudga kelgan?
7. Iqtisodiyot nazariyasining qanday vazifalari mavjud? Bu vazifalarning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Iqtisodiy qonunlar nima va ularning qanday turlari mavjud?
9. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
10. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy taxlil o'rtasidagi farq nimadan iborat?

**2-Mavzu. Iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir.**

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson hayotining asosini moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tashkil etadi. Biroq, bugungi kunda iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalarida ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini yoritish e'tibordan chetda qolmoqda. Bu bir tomondan, talabalarning mahsulotlar (tovarlar va xizmatlar) qaerda, kim tomonidan, qanday ishlab chiqarilishini, texnika va texnologiyalarning qaerda qo'llanilishini va qanday bo'lishini tushunmaslikka olib kelsa, ikkinchi tomondan, bugun ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'layotgan ishlab chiqarish munosabatlaridan bexabar qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu mavzuda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish omillari va ishlab chiqarish jarayoniga tegishli muammolar qarab chiqiladi. Dastlab ishlab chiqarishning omillari tavsiflanadi, ishlab chiqarishning maqsadi va mazmuni ochib beriladi, so'ngra uning natijalari va samaradorligi bilan bog'liq masalalar bayoni beriladi. Tahlilda «ishlab chiqarish imkoniyati» tushunchasiga ham o'rin ajratiladi. Mavzuning oxirida keyingi qo'shilgan mahsulot va uning kamayib borishi, keyingi qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borishi qonunining mazmuniga tegishli marjinalistik g'oyalar bilan tanishtiriladi.

Iqtisodiy munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Iqtisodiy

munosabatlar bir joyda o'zgarishsiz qotib turmaydi. Ular doimo o'zgarib, rivojlanib boradi. Shunga ko'ra, mazkur mavzuda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar, ishlab chiqarishning ijtimoiy va texnologik usullari hamda iqtisodiy tizim tushunchalari batafsil ko'rib chiqiladi. Tahlil davomida iqtisodiy tizim modellari va ularning xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Ishlab chiqarish har doim ma'lum mulkchilikning aniq shakli doirasida sodir bo'ladi. Shuning uchun bu yerda mulkchilik munosabatlarining mohiyati, mulk shakllarining iqtisodiy mazmuni va bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida mulk shakllarining o'zgartirish yo'llari va usullari kabi masalalarga alohida o'rin ajratiladi.

### **Test**

- 1.** Ishlab chiqarishning asosiy omillari:
  - a) xom-ashyo va ishlab chiqarish texnologiyasi;
  - b) mehnat va ishlab chiqarish resurslari;
  - v) ishchi kuchi, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyati;
  - d) hamma javoblar to'g'ri.
- 2.** Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
  - a) ishlab chiqarish natijalari kapital sarflari bilan taqqoslanadi;
  - b) ishlab chiqarish natijalari umumiy sarf-xarajatlar bilan taqqoslanadi;
  - v) ishlab chiqarish natijalari aylanma mablag'lar bilan taqqoslanadi;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
- 3.** Davlat mulkini xususiylashtirishning dastlabki bosqichida qanday vazifa amalga oshiriladi?
  - a) ommaviy xususiylashtirish amalga oshiriladi;
  - b) kichik xususiylashtirish amalga oshiriladi;
  - v) ko'p ukladli iqtisodiyot real shakllanadi;
  - d) xususiy mulk hukmron shaklga aylanadi.
- 4.** Tovar qiymati qanday mehnat sarflarini ifodalaydi?
  - a) zaruriy; b) qo'shimcha; v) ijtimoiy-zaruriy; d) umumiy.
- 5.** Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog'liq?
  - a) muomala vositasi;
  - b) qiymat o'lchovi;
  - v) jamg'arma vositasi;
  - d) jahon puli.
- 6.** Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?
  - a) mahsulot miqdorini uni ishlab chiqarishga ketgan ish vaqtiga nisbati bilan;
  - b) mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yo'li bilan;
  - v) mahsulot miqdorini aylanma kapitalga taqqoslash yo'li bilan;

d) yuqoridagi barcha usullarda.

**7.** Monopollashgan bozor deganda:

a) oligopolistik bozor tushuniladi;

b) sof monopoliya bozori tushuniladi;

v) ozchilik sotuvchilar bilan xaridorlar hukmron bo'lgan bozor tushuniladi; d)

noto'g'ri javob yo'q.

**8.** Bozor regulyatori amal qilishi uchun:

a) oligopoliyaga yo'l berish kerak;

b) erkin bozor raqobatiga yo'l berilishi zarur;

v) monopoliyaga imkon berish lozim;

d) noto'g'ri javob yo'q.

**9.** Bozor konyunkturasi deganda:

a) bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkiban bir-biriga muvofiq kelishi tushuniladi;

b) mazkur bozorning tarkibida amal qiluvchi bo'g'inlar tushuniladi;

v) bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi tushuniladi;

d) noto'g'ri javob yo'q.

**10.** Bozorni tartibga solish mexanizmi:

a) talab, taklif, baho, raqobat;

b) monopoliya, oligopoliya, monopsoniya;

v) tadbirkorlik, biznes, foyda;

d) to'g'ri javob yo'q.

**11.** Bozor infratuzilmasi- bu:

a) monopoliya, oligopoliya, talab, taklif;

b) ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilma;

v) bozorga jalb etilgan tovar va xizmatlar;

d) hammasi to'g'ri.

**12.** Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday modellari mavjud?

a) Osiyocha model;

b) Sobiq sotsialistik mamlakatlar modeli;

v) Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlari modeli;

d) barcha javoblar to'g'ri.

Мулкчилик муносабатлари – бу мулк объектини ўзлаштириш бўйича мулк субъектлари ўртасидаги иқтисодий муносабатдир. Бу қонидани қуйидаги тасвир орқали ифодалаш мумкин:



### Mulkchilik shakllari

**Shaxsiy mulk** – fuqarolarning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mulk

**Xususiy mulk** – ayrim kishilar va guruhlariga tegishli bo'lib, yollanma mehnatdan foydalanib daromad topishga qaratilgan mulk

**Yakka tartibdagi xususiy mulk** – alohida olingan mulkdor tomonidan o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

**Aralash mulk** – turli mulk shakllari sintezi dan tashkil topib, shunga muvofiq tarzda o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

**Davlat mulki** – o'z vazifalarini bajarish maqsadida davlat tomonidan o'zlashtiriluvchi turli vosita va ne'matlar

**Jamoa mulki** – muayyan maqsad yo'lida turli ko'rinishdagi jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar

**Korporativ xususiy mulk** – ma'lum maqsad yo'lida o'zaro birlashgan mulkdorlar mablag'iga asoslangan korxonalar tashkil etish orqali o'zlashtiriluvchi vosita va ne'matlar





**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** – bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishdir.

**Xususiylashtirish** – bu davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan alohida shaxslarga o'tishidir.

1. Ishlab chiqarish usuli nima va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
2. Ishlab chiqarish usullarining eng muhim o'ziga xos belgilarini ajratib ko'rsating.
3. Bir ishlab chiqarish usulining boshqasiga almashinishi sabablari haqida mulohaza bildiring.
4. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini sanab ko'rsating. Fan-texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish texnologik usuliga ta'siri qanday?
5. Ishlab chiqarish texnologik usullarining bosqichlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?
6. Iqtisodiy tizim nusxalarini farqlantiradigan asosiy belgilarini sanab ko'rsating.
7. Mulkchilikning mohiyatiga ta'rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring.
8. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy mazmunini ajratib ko'rsating.
9. Mulk sub'ektlarining ko'p darajali bo'lishiga sabab nima?
10. Mulkchilik shakllarining farqlanishi asosida nima yotadi?
11. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini taqozo qiladi?

### 3-Mavzu.Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari


#### Test

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday modellari mavjud?
  - a) Osiyocha model;
  - b) Sobiq sotsialistik mamlakatlar modeli;
  - v) Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlari modeli;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
2. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishning qanday yo'llari mavjud?
  - a) induktiv va deduktiv;
  - b) evolyusion va inqilobiy;
  - v) «karax qilib davolash»;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish qaysi yo'l bilan boryapti?
  - a) Turkiya modeli asosida;
  - b) «karax qilib davolash», yo'li bilan;
  - v) evolyusion yo'l bilan;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
4. Talab- bu ...
  - a) ehtiyoj;
  - b) pul bilan ta'minlangan ehtiyoj;
  - v) tovar qiymatining puldagi ifodasi;
  - d) hammasi to'g'ri.
5. Talab qonuni- bu ...
  - a) narx oshgan sari talab kamayadi va aksincha;
  - b) narxning pasayishi bilan talab kamayadi;
  - v) narxning o'zgarishi talabga ta'sir etmaydi;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
6. Talabga quyidagi omillar ta'sir etadi:
  - a) tovarlarning narxi va miqdori, iste'mochilar soni va daromadi;
  - b) birjadagi tovarlar va xizmatlar narxi va aksiyalar kursi;
  - v) sotuvchi va xaridorlarning miqdori;
  - d) resurslar narxi va ishlab chiqarish texnologiyasi.
7. Talab qonuni- bu ...
  - a) narx oshgan sari talab kamayadi va aksincha;
  - b) narxning pasayishi bilan talab kamayadi;
  - v) narxning o'zgarishi talabga ta'sir etmaydi;
  - d) to'g'ri javob yo'q.

8. Talabga quyidagi omillar ta'sir etadi:


- a) tovarlarning narxi va miqdori, iste'mochilar soni va daromadi;
- b) birjadagi tovarlar va xizmatlar narxi va aksiyalar kursi;
- v) sotuvchi va xaridorlarning miqdori;
- d) resurslar narxi va ishlab chiqarish texnologiyasi.


\* **Bozor iqtisodiyoti** - bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bozor iqtisodiyotining asosida tovar-pul munosabatlari yotadi.



#### 1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari.

**Bozor iqtisodiyoti** – bu xususiy mulk ustunligiga asoslangan hamda iqtisodiy jarayonlar bozor mexanizmi yordamida boshqariladigan va tartibga solinadigan iqtisodiyotdir.





### Masala

1. Toshkent fond birjasida 1 oktyabrda 1 donasi 1000 so'm bo'lgan 20.000 ta aksiyani 31 oktyabrgacha sotish bo'yicha bitim imzolanadi. Oktyabr oyida aksiya kursi 1200 so'mga chiqdi. Bu holatda kim va qancha miqdorda yutdi? (sotuvchimi yoki xaridormi?) Oktyabr oyida aksiya kursi 900 so'mgacha pasaysa nima bo'ladi?

2) Tarvuzga bo'lgan talab 100 dona bo'lganda har bir tarvuz narxi 21 so'mni tashkil qiladi.

160 dona bo'lganda bir dona tarvuz 19 so'm bo'lsin. Yoysimon elastiklik koeffisientini hisoblaymiz.

3) Kalishga bo'lgan talab 150 dona bo'lganda, har bir poy kalish narxi 40 so'mni tashkil qilsin, talab 250 dona bo'lganda bir poy kalish narxi 37 so'm bo'lsin. Yoysimon elastik koeffisientini hisoblang.

### Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.
7. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
8. Bozor infratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta'rif bering.

9. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari (modellari) ni ta'riflab bering. Ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsating.

10. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega? Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?

11. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish printsiplining mazmunini batafsil tushuntiring. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini to'laroq bayon qiling.

12. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Har bir yo'nalish bo'yicha o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.

13. Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar o'z oldiga qanday vazifalarni qo'yadi? Bu vazifalarning to'laroq tavsifini bering.

14. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning etakchilik faoliyati nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.

15. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz?

#### **4-Mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati. Raqobat va monopoliya.**

Kishilarning ehtiyoji ilmiy va hayotiy tushuncha bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida amal qilib kelmoqda, chunki bu tushuncha kishilarning hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyatini bildiradi. Ehtiyojning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ko'rinishi va amal qilishi talabdir. Lekin talab ehtiyojdan farq qiladi va mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi. Uning farqi shundan iboratki, kishilarning ehtiyoji o'sib boraveradi, cheksizdir. U pul bilan ta'minlansa va sotib olish kurbiga ega bo'lgan taqdirda talabga aylanadi.

Demak, aytish mumkinki, talab- bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj sotib olish uchun zarur bo'lgan pul bilan ta'minlanmasa, u "xoxish", "istak" bo'lib qolaveradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o'z shakllarini o'zgartirib boradi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, «Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir», deb ta'kidlaydi.

Narx - bozor mexanizmining muhim tarkibiy elementlaridan biri. U o'zining vazifalari orqali barqaror iqtisodiyotning shakllanishi hamda samarali amal qilishiga, bozor muvozanatining ta'minlanishiga, milliy daromad iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari bo'yicha taqsimlanishiga, aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, u

ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirib, sog'lom raqobat muhitining yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu mavzuda biz narxning iqtisodiy mazmuni va vazifalari, shakllanish tamoyillari va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, narx turlari bilan bir qatorda davlatning narx siyosati va uning O'zbekistondagi o'ziga xos jihatlarini ham ko'rib chiqamiz.

#### Test

1. Raqobat turlari:
  - a) sof (erkin) raqobat, monopolistik, oligopoliya va monopoliya;
  - b) firmalararo, bozorlararo va sof monopoliya;
  - v) mintaqaviy, konsernlararo, funksional va yashirin; d) to'g'ri javob yo'q.
2. Monopoliya nima?
  - a) bozorda ishlab chiqaruvchilar soni juda ko'p bo'lib, xaridorlarga xizmat qiladilar;
  - b) bozorda bitta ishlab chiqaruvchi ko'pchilik xaridorlarga xizmat ko'rsatadi;
  - v) ko'p sonli kichik firmalarning raqobatlashuvi;
  - d) hamma javoblar to'g'ri.
3. Monopsoniya- bu .....
  - a) tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarining hukmronlik qilishi;
  - b) bozorda u qadar ko'p bo'lmagan iste'molchilarning hukmronligi;
  - c) v) tanho iste'molchining hukmronligi;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
4. Oligopsoniya- bu.....
  - a) erkin raqobat;
  - b) bozorda ko'plab sotuvchilar o'z mahsulotlarini taklif qiladilar;
  - v) hammasi to'g'ri;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
5. Baholar oralig'idagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?
  - a) baho ko'rsatkichi;
  - b) baho diapazoni;
  - v) baho chegarasi;
  - d) yuqoridagi barcha nom bilan.
6. Baho shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
  - a) iqtisodiy xarajatlar;
  - b) tovarning nafliligi;
  - v) raqobat va davlat siyosati;
  - d) yuqoridagilarning barchasi.
7. Tadbirkorlik faoliyati .....
  - a) foyda olish maqsadida tavakkalchilik bilan amalga oshiriladigan faoliyat;

b) bozor sub'ektlari o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq tavakkalchilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi;

v) asosiy kapitalni kengaytirish va uni takror ishlab chiqarishga qilinadigan sarflar;

d) iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar.

**8.** Biznes faoliyat turi sifatida quyidagilardan qaysi birini o'z ichiga oladi?

a) ishlab chiqarish va uni tashkil etishni (rejalashtirish va ta'minot ham o'z ichiga olgan);

b) marketing faoliyatini (reklama va baho siyosati bilan birga);

v) moliyaviy ta'minlashni;

d) yuqoridagilarning barchasini.

#### Masala va mashq

**1.** Quyidagi jadvalda narxning o'zgarishiga ko'ra taklif hajmining o'zgarishi berilgan. Ma'lumotlar asosida taklif elastikligi koeffitsientini aniqlang. Jadvalni to'ldiring. Elastiklik koeffitsienti deganda nimani tushunasiz? Uni hisoblashning qanday ahamiyati bor. Elastiklik koeffitsientining birga teng bo'lishi, birdan katta yoki kichik bo'lishi nimani bildiradi? Fikringizni izohlab bering?

Tovar turi	Narx, so'm	Taklif hajmi dona	Narxga ko'ra taklif elastikligi koeffitsienti	Elastikligi
A	100	5		
B	200	10		
C	300	15		
D	400	20		
E	500	25		
F	600	30		
I	700	35		

**2.** Tovarga bo'lgan talab funksiyasi  $Q_d=700-P$

Taklif funksiyasi:  $Q_s = 2P - 200$ ;

P - tovar narxi, so'm, Q – tovar miqdori, ming dona.

Quyidagilarni hisoblang:

1) Berilganlar asosida tovarning muvozanat bahosi va miqdo-rini aniqlang.


2) A), B) va V) punktlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan vaziyat-larda:

A) davlat organlari tomonidan tovarga 200 so'm miqdorida baho (qayd qilingan) belgilab qo'yildi. Taklif miqdorini, sotilgan tovar va taqchilik miqdorini aniqlang.


V) ishlab chiqaruvchilarga har bir sotilgan tovar uchun 150 so'm miqdorida dotatsiya belgilandi. Tovarning muvozanat narxi va miqdorini aniqlang.

G) har bir tovarga 150 so'm miqdorida egri soliq (qo'shilgan qiymat solig'i) belgilandi. Yangi muvozanat narxini hisoblang.

# Talab va taklifning diagrammasini



Ordinata o'qi bo'yicha bir birlik mahsulotning narxi ko'rsatilgan (so'mda). Absissa o'qi bo'yicha berilgan vaqt oralig'ida talab qilingan va taklif qilingan mahsulot hajmi ko'rsatilgan. Taklif chizig'i (supply) qancha miqdorda va qanaqa ishlab chiqarish narxida tovarning bozorda sotilishi mumkinligini ko'rsatadi. Taklif chizig'i qancha yuqoriga ko'tarilsa, shuncha narx yuqori bo'ladi va shunga ko'p firmalar mahsulot ishlab chiqarib, sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar.




Real iqtisodiy hayotda shunday holat ham yuz berishi mumkin, ya'ni ayrim tovarlarga narxlar o'sishi bilan ularga bo'lgan talab kamaymasdan balki ortib boradi. Bu holat **Giffen samarasi** deb ataladi. R.Giffen kambag'al oilalar kartoshga qimmatligiga qaramasdan uni iste'mol qilish hajmi ortib borishini kuzatib, bu samarani izohlab beradi. Uning sababi oddiy, narx o'sganda kambag'al oilalar go'sht sotib olishdan umuman voz kechib, ko'p bo'lmagan daromadlarning barchasini kartoshka sotib olishga sarflaydi.



## 1. Talab tushunchasi. Talab qonuni. Talabga ta'sir etuvchi omillar.

**Talab** – bu narxlarning mavjud darajasida sotib olinadigan tovar (xizmat) lar miqdori.



Talab darajasini belgilab beruvchi asosiy omil narx hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o'zgaray qolganda narxlarning o'zgarishi (pasayishi yoki ko'tarilishi) sotib olinadigan tovarlar miqdorining o'zgarishiga (ortishi yoki kamayishi) olib keladi.

Narx darajasi va sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik **talab qonuni** deyiladi.

## Savollar

1. Talab va ehtiyoj farqi
2. Taklif nima
3. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
4. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu vazifalarning bir-biridan farqini ajratib ko'rsating.
5. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.
6. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
7. Halol va g'irrom raqobatlashuv usullariga nimalar kiradi?
8. Raqobatlashuvning demping narxlarni qo'llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
9. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat? Monopoliyaning qanday turlari mavjud?
10. Kapitalning to'planishi va markazlashuvi o'rtasida qanday farq bor?
11. Tabiiy, legal va sun'iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko'rsating.
12. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
13. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday?

14. Raqobat muhitining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

15. O'zbekistonda raqobatni qo'llab-quvvatl

### **5-Mavzu.Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyati va uning shakllari. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi.**

Seminar mashg'ulot davomida biz tovarning qiymati har qanday sarflarni emas, balki mavjud sharoitda shu tovarni ijtimoiy zaruriy miqdorda va sifatda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy zaruriy sarflarni ifoda etishini aytib o'tgan edik. Baholar mazmunini aniqlashda tovardagi mana shu ikki xil xususiyatning birligini, bunda iste'mol qiymat (naflilik) qiymatni o'zida olib yuruvchi moddiy asos ekanligini to'g'ri hisobga olmaslik natijasida narx mazmuni turli olimlar va oqimlar tomonidan turlicha aniqlanmoqda va unga turlicha ta'rif berilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Tadbirkorlikning tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqalsa-da, uning hozirgi zamon tushunchasi XVIII asrda paydo bo'lgan va ko'pincha «Mulkdor» iborasi bilan bir xil tushunilgan.

Keyinchalik real xo'jalik hayotida qatnashuvchi kapitalning mulkdor kapitaldan ajralib chiqishi natijasida «tadbirkorlik» tushunchasi «mulkdor» tushunchasiga to'g'ri kelmay qoladi.

Hozirgi zamon Qarb adabiyotida ham tadbirkorlikka foyda olish maqsadini ko'zlab xo'jalik yuritish san'ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo'lishi, novatorlik, xavf-xatarga nisbatan tayyor bo'lish va shu kabi ko'p qirrali tomonlari bilan qaraladi.

Hozirgi kunda bizning iqtisodiy tafakkurimiz, aniqroQi boshqarish nazariyasi xam tadbirkorlik faoliyatini shunday tushunish tomon bormoqda.

Qisqa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyati foyda olishga qaratilgan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun albatta mulk egasi bo'lish shart emas, u zarur vositalarni ijaraga olishi, ssuda olishi va ishni yuritishi mumkin.

#### Test

1. Narx- ..... :

- a) oldi-sotdi vositasi;
- b) ishchi kuchining bahosi;
- g) qiymatning va naflilikning puldagi ifodasi;
- d) qo'shimcha qiymat.

2. Baholar oralig'idagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?

- a) baho ko'rsatkichi;

- b) baho diapazoni;
- g) baho chegarasi;
- d) yuqoridagi barcha nom bilan.

**3. Baho shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?**

- a) iqtisodiy xarajatlar;
- b) tovarning nafliligi;
- g) raqobat va davlat siyosati;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**4. Tadbirkorlik faoliyati .....**

- a) foyda olish maqsadida tavakkalchilik bilan amalga oshiriladigan faoliyat;
- b) bozor sub'ektlari o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq tavakkalchilikka ega

bo'lish uchun kurashni anglatadi;

g) asosiy kapitalni kengaytirish va uni takror ishlab chiqarishga qilinadigan sarflar;

- d) iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar.

**5. Tadbirkorlik kapitali qanday shakllarda mavjud bo'ladi?**

- a) pul va unga tenglashtirilgan qimmatli qog'ozlar shaklida;
- b) unumli kapital yoki ishlab chiqarish vositalari shaklida;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarish va ehtiyot fondlari shaklida;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**6. Aksiyaning daromad keltirishiga ko'ra qanday turlari mavjud?**

- a) oddiy va imtiyozli;
- b) yutuqli va yutuqsiz;
- g) birlamchi va ikkilamchi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

**7. Dividend... -**

- a) aksioner jamiyati sof foydasining aksionerlarga tegadigan bir qismi;
- b) qimmatli qog'oz;
- g) iqtisodiy yordam;
- d) to'g'ri javob yo'q.

**8. Ishlab chiqarish xarajatlari - bu.....**

a) tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar;


b) yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi;

g) asosiy kapitalni kengaytirish va uni takror ishlab chiqarishga kilinadigan sarflar;

- d) to'g'ri javob yo'q.

## Krassvord


1. narx turlari
2. Bozor iqtisodiyoti sub'ekti
3. price
4. barcha boylukning onasi
5. yer otasi
6. mehnat g'oyasini ilgari surgan maktab
7. Bozor infrastrukturasi
8. O'z ehtiyoji uchun ishlab chiqarish
9. Cheklangan resurslar orqali cheklanmagan ehtiyojlarni qondirish
10. Mablag'ni safarbar etish
11. Investitsiya turlari
12. Mul'kchilik munosabatlari
13. Raqobat turlari
14. bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasi
15. Foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati
14. tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadning bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ortiq qismi
15. yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt



### 3. Narxning mazmuni va uning vazifalari, turlari.

**Narx** – talab va taklifning muayyan nisbatida tovar (xizmati) ni ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurs xarajatlari hamda uning nafilligining pul ko'rinishida ifodalanishi.





### Savollar

2. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering. Narx asosiy turlarining qisqacha tavsifini bering.
3. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud? Ularning afzallik va kamchilik tomonlarini ko'rsatib bering.
4. Sof raqobat sharoitida narxning tashkil topish mexanizmini tushuntirib bering.
5. Sof monopoliya sharoitida narx qanday shakllanadi?
6. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
7. Oligopoliya sharoitida firmalarning «inkor etish» va «ergashish» hatti-harakatlarining mazmuni nimadan iborat? «Narx bo'yicha etakchilik» tushunchasini izohlab bering.
8. «Narxlar qaychisi» nima va undan qanday sharoitlarda foydalaniladi?
9. Narx siyosati nima? O'zbekistonda narx siyosati amalga oshirilishining qanday xususiyatlari mavjud?
10. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'rif bering. «Tadbirkorlik faoliyati» va «biznes» tushunchalarini izohlang.
11. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab ko'rsating. Nima uchun tadbirkor tahlila (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko'rsatadi?
12. Tadbirkorlikning rivojlanish shart-sharoitlari nimalardan iborat?
13. Tadbirkorlikning shakllarini va ularning xususiyatlarini ko'rsating.
14. Hissadorlik jamiyatiga ta'rif bering. Aktsiya nima, aktsiya kursi qanday aniqlanadi? Aktsiya kursiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.
15. Tadbirkorlik kapitali nima? Uning tarkibiy tuzilishi qanday?

16. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o'tadi hamda qanday shakllarga kiradi?

17. Kapitalning aylanishiga tavsif bering. Aylanish vaqti qanday vaqtlarni o'z ichiga oladi? Ularga tushuncha bering.

18. Kapitalning aylanish tezligi qanday aniqlanadi? Kapitalning aylanish uzunligi ikki oyni tashkil qiladi deb faraz qilsak, bir yilda necha marta aylanadi va bir aylanishining uzunligi qancha davom etadi?

19. Unumli kapital asosiy va aylanma kapitalga qanday mezonlar bo'yicha ajratiladi? Asosiy va aylanma kapitalga tavsif bering.

20. Amortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni nimadan iborat? Uning normasi qanday aniqlanadi?

21. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orkali aniqlanadi? Aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini tushuntiring.

## **6-Mavzu. Korxonalar (firma) xarajatlari va foydasi. Ish haqi va mehnat munosabatlari. Agrar munosabatlar va agrobiznes.**

Korxonalar bozorga mahsulot yetkazib berishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-xarajatlar darajasi hisoblanadi. Har qanday tovarni ishlab chiqarish iqtisodiy resurs sarflarini taqozo qiladi, ular ma'lum narxga ega bo'ladi. Korxonalar bozorga taklif qiladigan tovar miqdori iqtisodiy xarajatlar (resurs narxlari) darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotiladigan narxlarga bog'liq. Bu mavzuda biz sarf-xarajatlarning umumiy tabiati va tarkibiga to'xtalamiz hamda foydaning tashkil topishini tahlil qilamiz.

Shu bilan bir qatorda, kishilarning hayot kechirishi va turmush darajasini aniqlab beruvchi daromadlarning asosiy turi bo'lgan ish haqini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuda ish haqining iqtisodiy tabiati bilan bog'liq muammolar va uning shakllari hamda bozor munosabatlari sharoitida ish haqi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo'g'inlari uchun umumiy bo'lsada, lekin ulardagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o'ziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bu yerda takror ishlab chiqarish ko'p jihatdan tirik organizm (xayvon, o'simlik va boshqalar) bilan ham bog'liq. Shuning uchun bu bobda iqtisodiyotning umumiy tomonlari bilan birgalikda uning agrar sohada namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqiladi.

Ushbu mavzuda avval agrar munosabatlarning mazmunini tahlil qilib, keyin e'tibor yer rentasiga qaratiladi. Yer rentasining vujudga kelishi va taqsimlanishi

muammosiga turlicha qarashlarni bayon qilib, ularning qisqacha tavsifi beriladi. Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalariga to'xtalib o'tilib, mavzu so'ngida agrobiznes va uning turlari bayon etiladi.

### Test

1. O'rtacha xarajatlar nima?
  - a) bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari;
  - b) bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan doimiy xarajatlar;
  - v) bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan o'zgaruvchan xarajatlar;
  - d) hamma javoblar to'g'ri.
2. Agrar munosabatlar nima?
  - a) qishloq xo'jaligida va ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqa va munosabatlar;
  - b) yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar;
  - g) iqtisodiy qonunlarning tabiat qonunlari bilan bog'lanib ketishi;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
3. ish haqi nima?
  - a) Ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir;
  - b) ish haqi iqtisodiy resurs hisoblangan mehnatning bahosi;
  - c) g) barcha javoblar to'g'ri;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
4. Mamlakatda ish haqining umumiy darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
  - a) foydalanilgan umumiy kapital miqdori;
  - b) foydalanilgan tabiiy resurslar miqdori;
  - c) g) mehnat unumdorligi;
  - d) yuqoridagilarning barchasi.
5. Mehnat shartnomasida nimalar aks etadi?
  - a) ish haqi darajasi, ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavk a;
  - b) dam olish kunlari, tanaffuslar;
  - g) baholar o'zgarganda ish haqini tartibga solish tizimi;
  - d) yuqoridagilarning barchasi.




### Krassvord

1. Ichki talab
2. Narx nisbati yani .....
3. narxning darajasiga ta'sir etuvchi omillar
4. Narxning vazifalaridan biri
5. Davlat budjeti hisobidan maxsus narxning arzonlashtirilishi
6. Aksiya egasiga to'lanadigan daromad
7. O'zining qiymatini tayyorlanayotgan maxsulotga bo'lib-bo'lib o'tkazib borishi va ashyoviy buyum



shaklini o'zgartirmaydigan kapital 8. asosiy kapital eskirib borishiga qarab uning qiymatini asta-sekin ishlab chiqarilgan maxsulotga o'tkazilishi 9. narx oshsa ham talab oshishi nazariyasini isbotlagan iqtisodchi 10. Umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon xarakat. 11. maxsulot sifati va unga ko'rsatiladigan xizmati bilan raqobatlashuvchi raqobat turi 12. haridorning o'ziga-o'zi xizmat qilishiga asoslangan savdo korxonasi 13. Bozor iqtisodiyoti subekti 14. Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish jarayoni 15 market



### Savollar

1. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlarining mohiyatini va tarkibini tushuntiring.
2. Ichki va tashqi xarajatlar o'rtasidagi farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.
3. O'rtacha doimiy, o'zgaruvchi va umumiy xarajatlarning mazmuni hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o'zgarishlardan qaysilari uzoq muddatli davrdagi xarajatlarga kiradi: a) kompaniya neftni qayta ishlovchi yangi uskunani o'rnatadi; b) korxonaga yana 200 ishchini yollaydi; v) fermer o'z uchastkasida qo'llaniladigan o'g'it miqdorini ko'paytiradi; g) fabrikada uchinchi smena joriy qilinadi.
5. Sarflarning quyidagi turlari xarajatlarning qaysi turkumga tegishli ekanligini aniqlang: mahsulot reklamasiga sarflar, korxonaga chiqargan zayomlar bo'yicha foiz to'lovlari; xom ashyoga sarflar, ko'chmas mulkka soliq to'lovlari, boshqaruv xodimlari maoshi; ishchilarga ish haqi to'lovlari; amortizatsiya ajratmasi.
6. Foydaning mazmunini va manbaini tushuntiring.
7. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqi nimada?

8. Yaratilgan milliy mahsulotning qanday qismi ish haqi shaklini oladi?
9. Ish haqi bilan zaruriy mahsulot o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
10. Ish haqining turlicha nazariyalarini tahlil qilib, ularga o'z qarashingizni bildiring.
11. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?
12. Nima uchun ish haqining umumiy darajasi har xil mamlakatlarda turlicha?
13. Tarif tizimi o'z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi? Ularning har birining ahamiyati va farqlanishini tushuntirib bering.
14. Mehnat munosabatlari deganda nimani tushunasiz? Mehnat munosabatlari kimlar tomonidan tartibga solinadi?
15. Kasaba uyushmasi nima va uning qanday turlari mavjud?
16. Kasaba uyushmalari ish haqini oshirishning qanday usullaridan foydalanadilar?
17. Mehnat shartnomasi nima va unda qanday masalalar o'z ifodasini topadi?

### **7-Mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi ichki mahsulot va uning xarakat shakllari.**

Mazkur mavzudan boshlab iqtisodiy munosabatlar makroiqtisodiy darajada tahlil qilinadi. Dastlab milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga tavsif beriladi. Milliy ishlab chiqarishning natijasi hisoblangan ijtimoiy mahsulot, yalpi milliy mahsulot, ularning harakat shakllari va tarkibiy qismlarining iqtisodiy mazmuni yoritiladi. Milliy hisoblar tizimi hamda uning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullari bayon etiladi.

#### **Test**

1. Ish haqi nima?
  - a) ish haqi ishchi kuchi egasining hayot va mehnat faoliyatini ta'minlash vositasi, ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir
  - b) ish haqi ishchi kuchi egasining hayot va mehnat faoliyatini ta'minlash vositasi
  - g) ish haqi iqtisodiy resurs
  - d) ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir
2. Mehnat shartnomasida nimalar aks etadi?
  - a) ish haqi darajasi, ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, ish haqini tartibga solish tizimi, dam olish kunlari, tanaffuslar
  - b) baholar o'zgarganda ish haqini tartibga solish tizimi
  - g) dam olish kunlari, tanaffuslar
  - d) ish haqi darajasi, ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka

3. Real ish xaqining darajasiga qanday omil ta'sir ko'rsatadi?
- xarid qilinadigan tovar va xizmatlar bahosi, soliqlar va boshqa majburiy tulovlar, nominal ish xaqi
  - xarid qilinadigan tovar va xizmatlar bahosi
  - soliqlar va boshqa majburiy tulovlar
  - nominal ish xaqi
4. Nominal ish xaqining to'g'ri tarifini toping?
- ma'lum vaqt oraligida pul shaklida olingan ish xaqi
  - ish xaqini sotib olish layoqati
  - barcha pul daromadlari (foyda, renta, foiz) summasi
  - ish xaqini sotib olish
5. Real ish xaqining to'g'ri ta'rifini toping?
- nominal ish xaqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori real ish haqi deyiladi
  - pul shaklida olingan ish xaqi real ish haqi deyiladi
  - ish xaqining pul shaklida qat'iy belgilangan stavkasi real ish haqi deyiladi
  - hisoblangan ish haqi

### **Mashq va masalalar**

1. To'qimachilik tarmog'ida 1 yilda tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ish haqi miqdori 30 mln so'mni, to'langan soliqlar va to'lovlar miqdori 20 mln so'mni, foyda miqdori 20 mln so'mni tashkil etdi. Bunda iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati 70 mln so'mni tashkil etdi, shundan 40 mln so'mi xom ashyo, yonilg'i materiallar uchun va 30 mln so'm amortizasiya uchun sarflandi. Tarmoqdagi ichki milliy mahsulot miqdorini aniqlang.

2. Paxtani qayta ishlash tarmog'ida ish haqi 50 mln so'mni, to'langan soliqlar 25 mln so'mni, foyda 30 mln so'mni amortizasiya ajratmalari 40 mln so'mni va xom ashyo materiallar sarfi 140 mln so'mni tashkil etdi. Tarmoqdagi JIM miqdorini va IMM miqdorini aniqlang.

4. Yalpi ichki maxsulot qiymatini aniqlashda qo'llaniladigan usullarni tushintirib bering.

5. Korxonada 1-yil jalb qilingan kapital miqdori 120 ming so'm, ishchilar soni 100 ta 2-yil esa jalb qilingan kapital miqdori 150 ming so'm, ishchilar soni 120 ta, olingan umumiy mahsulot miqdori 1-yil 100 ming so'm, 2-yil esa 130 ming so'm, qo'shilgan omillar unumdorligini aniqlang.

6. Ishlab chiqarishga sarflangan resurs harajatlari 850 ming so'm, olingan foyda 255 ming so'm bo'lganda ishlab chiqarish samaradorligini aniqlang.

7. Korxonada oyiga 1500 dona mahsulot ishlab chiqariladi. Mahsulot birligining bahosi 500 so'm, ishlab chiqarish xarajatlari 350 so'm bo'lsa, korxonaning yalpi foydasi necha so'mni tashkil qiladi?

8. Mamlakat xalk xujaligida 2015-yilda 9664,1 mlrd. sumlik YaMM ishlab chikarilgan, 2016-yil YaMM qiymati 7469,3 mlrd. Sumni tashkil etgan. 2016-yilda YaMM narx indeksini aniklang.

9. Kuyidagi jadvalni tuldiring.

Yillar	Nominal YaMM (mlrd \$)	Narx indeksi	Real YaMM
2015	105	121	
2016	54	91	
2017	98	100	

10. Amortizasiya ajratmalarining yillik summasi 40 ming so'm, asosiy

kapitalning qiymati 20 mln so'mni tashkil etsa, amortizasiya normasini aniqlang.

11. Shaxsiy daromad kandy aniqlanadi.

12. Nominal YaMM 480 mlrd. sumdan 600 mlrd sumgacha, YaMM Deflyatori esa 120% dan 150% gacha kutarildi. Bunday xolatda real YaMM xajmini aniklang.

13. Mamlakat xalk xujaligida 2016 yilda 4210,5 mlrd. dollarlik YaMM ishlab chikarilgan, 2017- yilda esa YaMM qiymati 3213,6 mlrd. dollarni tashkil etgan. 2016- yilga YaMM narx indeksini aniklang.

14. Kuyidagi jadvalni tuldiring.

Yillar	Nominal YaMM Mlrd. \$	Deflyator %	Real YaMM
2014	1700	50	
2015	2100	70	
2016	3200	100	
2017	4800	120	

15. Nominal YaMM 500 mlrd. sumdan 450 mlrd. sumgacha, YaMM deflyatori esa 125 % dan 100 % gacha kamaygan bunday xolatda real YaMM xajmini aniklang.

16. Milliy iktisodiyotda 3294,5 mlrd. Sum, asosiy kapitalga kilingan xarajatlar 1136 mlrd. Sum bulganda SMM mikdorini aniklang.

## Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi bo'yicha hisoblash

**1 Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari**  
**+1 Daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarf va to'lovlar a) amortizatsiyab) egri soliqlar****+2 Tadbirkorlarning investitsion sarflari****+2 Ish haqi****+3 Tovar va xizmatlarning davlat xaridi****+3 Renta to'lovlari****+ 4 CHet elliklarsarfi****+4 Foiz****+5 Notijorat muassasalari sarfi****+5 Foyda****+6 Moddiy aylanma vositalar zaxirasidagi o'zgarishlar** **YAIM**

www.arkiv.uz

- **Yalpi milliy mahsulot (YaMM)** – bu o'z mamlakati yoki xorijda joylashuvidan qat'iy nazar, milliy korxonalar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining jami qiymatidir.
- Mamlakat ichkarisida yaratilgan iqtisodiyot bu yalpi ichki mahsulotni tashkil etadi. **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** – bu ma'lum vaqt mobaynida (davomida), masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxidagi qiymatidir.

www.arkiv.uz

### Savollar

1. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning farqi nimada? Ular iqtisodiyotning qanday ko'rinishlari uchun xos ekanligini izohlang.
2. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
3. Makroiqtisodiy ko'pcatkichlap nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
4. YaIM va SMM bip-bipidan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy dapomad-chi?
5. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.

6. YaIM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat.
7. Nominal va real YaIM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko'rsating.
8. Agar joriy yildagi nominal YaIM hajmi 700 mlrd. so'mga, narx indeksi 1,5 ga teng bo'lsa, real YaIM hajmi qancha bo'ladi? Agar narx indeksi 0,8 ga teng bo'lsa-chi?
9. Takroriy hisob, qo'shilgan qiymat, oraliq mahsulot va pirovard mahsulot tushunchalarini izohlab bering.
10. Sof iqtisodiy farovonlik ko'rsatkichining mohiyati hamda hisoblash tartibini tushuntirib bering.

### **8-Mavzu. Yalpi talab va yalpi taklif. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar.**

Bu mavzuda oldingi mavzuda boshlangan makroiqtisodiy taxlilimizni davom ettiramiz. Buning uchun avvalo yaxlit olingan bozorni qarab chiqamiz. Keyin yalpi talab va yalpi taklif tushunchalarining iqtisodiy mazmunini tavsiflaymiz. Tahlil davomida yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib ular ta'sirida baholarning muvozanatli darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi qanday o'rnatilishini qarab chiqamiz.

Bu mavzuda jami sarflarning tarkibiy qismi bo'lgan iste'mol (shaxsiy) va milliy daromadning ishlab chiqarishning kengaytirishga ketadigan qismi bo'lgan jamg'arishning iqtisodiy mazmunini qarab chiqamiz. Ularning darajasini aniqlovchi asosiy omillarni ko'rsatamiz. Shu bilan birga shaxsiy daromadning iste'moldan ortiqcha boshqa qismi-jamg'arma (omonat)ning iqtisodiy mazmuni va omillarini ko'rsatib berishga ham alohida e'tiborni qaratamiz.

#### **Test**

1. Yalpi talab bu ..
  - a) ma'lum davr va sharoitlarda yakuniy tovarlarga mamlakat bozorlaridagi umumiy talab yig'indisi
  - b) ma'lum davr va sharoitlarda yakuniy tovarlarga mamlakat bozorlaridagi cheklangantalab yig'indisi
  - v) narxlarning turli belgilangan darajasida firmalar va uy xo'jaliklari bozorga taqdim etishga tayyor bo'lgan ne'mat va xizmatlarning umumiy miqdori
  - d) pul bilan ta'minlangan extiyoj
2. Yalpi taklif bu-..
  - a) narxlarning turli belgilangan darajasida firmalar va uy xo'jaliklari bozorga taqdim etishga tayyor bo'lgan ne'mat va xizmatlarning umumiy miqdori

b) ma'lum davr va sharoitlarda yakuniy tovarlarga mamlakat bozorlaridagi umumiy talab yig'indisi

v) bitta ishlab chiqaruvchi tomonidan bozorga taklif etilgan xizmatlar

d) yakuniy tovarlarga mamlakat bozorlaridagi umumiy talab yig'indisi

**3. Iste' molchining farovonligi....-**

a) iste'molchi ega bo'lgan barcha moliyaviy aktivlarga (aksiya va obligasiya) hamda uy va yer kabi ko'chmas mulklarga egaligiga bog'liq bo'ladi. Ularning real qiymatining keskin kamayishi tovar xarid qilishining kamayishiga olib keladi.

b) iste'molchi ega bo'lmagan barcha moliyaviy aktivlarga (aksiya va obligasiya)

hamda uy va yer kabi ko'chmas mulklarga egaligiga bog'liq bo'ladi. Ularning real qiymatining keskin kamayishi tovar xarid qilishining kamayishiga olib keladi.

v) sotuvchiga ega bo'lgan barcha moliyaviy aktivlarga (aksiya va obligasiya) hamda uy va yer kabi ko'chmas mulklarga egaligiga bog'liq bo'ladi. Ularning real qiymatining keskin kamayishi tovar xarid qilishining kamayishiga olib keladi.

d) eksportchi ega bo'lgan barcha moliyaviy aktivlarga (aksiya va obligasiya) hamda uy va yer kabi ko'chmas mulklarga egaligiga bog'liq bo'ladi.

**4. Unumdorlik -**

a) bu milliy ishlab chiqarish real hajmining foydalanilgan resurslar miqdoriga yoki

b. harajat birligiga to'g'ri keladigan nisbiy miqdori. bu milliy ishlab chiqarish real hajmining foydalanilmagan resurslar miqdoriga yoki

v. harajat birligiga to'g'ri keladigan nisbiy miqdori. bu milliy ishlab chiqarish real hajmining import kilingan resurslar miqdoriga yoki

d. harajat birligiga to'g'ri keladigan nisbiy miqdori. bu milliy ishlab chiqarish real hajmining eksport kilingan resurslar miqdoriga yoki harajat birligiga to'g'ri keladigan nisbiy miqdori.

**5. Milliy daromad nima?**

a) Yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SMM dan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi;

b) ishlov berish, qayt a ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan qiymat;

v) Milliy ishlab chiqarish real hajmining foydalanilgan resurslar miqdoriga yoki xarajat birligiga to'g'ri keladigan nisbiy miqdori;

d) to'g'ri javob yo'q.

**6. Qaysi omil ta'sirida yalpi talab o'zgaradi?**

a) narx darajasining o'zgarishi;

b) investision sarflardagi o'zgarishlar;

v) inflyasiya darajasi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

7. Yalpi taklif egri chizig'ining qaysi kesmasida ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaydi?

- a) tik kesmada;
- b) oraliq va yotiq kesmada;
- v) oraliq kesmada;
- d) yuqoridagilarning barchasida.

8. SHaxsiy daromad 65000 so'm bo'lib, uning 52000 so'mi iste'molga ketsa, iste'molga o'rtacha moyillik necha foizni tashkil etadi?

- a) 100%;
- b) 80%;
- c) v) 85%;
- d) d)82%.

9. 65000 so'm shaxsiy daromaddan 13000 so'mi jamg'arma sifatida ishlatilsa, jamg'armaga o'rtacha moyillik necha foizni tashkil etadi?

- a) 20%; v) 50%; g) 25%; d) 80%.

### **Mashq va masalalar**

1. O'quv qurollariga bo'lgan narxning 10% ga oshishi talab miqdorining 5% kamayishiga olib keldi. Bunday holatda talabning egiluvchanlik darajasini aniqlang.

2. O'quv qurollariga bo'lgan narxning 10% oshishi taklif miqdorini 15% ga oshishiga olib keldi. Bu holatdagi taklifning egiluvchanlik darajasini aniqlang.

3. Doimiy xarajatlar 72 ming so'm, o'zgaruvchan xarajatlar 188 ming so'm bo'lganda 520 dona mahsulot ishlab chiqarilsa, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan umumiy xarajatlar necha so'mni tashkil qiladi?

4. Un maxsulotlariga bo'lgan yalpi talabning 20%ga oshishi milliy ishlab chiqarishning real xajmining ko'payishiga va narx darajasining 0,7%ga oshishiga olib keldi.

Sut maxsulotlariga bo'lgan yalpi talab 10 foizga kamayganda milliy ishlab chiqarishning real xajmi xam kamayadi. Narx darajasi esa o'zgarishsiz qoldi. Xrapovikli samarani aniqlang.

5. To'qimachilik korxonasida maxsulot ishlab chiqarishning real xajmi 20 mln so'm , resurs xarajatlari esa 4 mln so'm bo'lganda unumdorlik qancha? Resurs xarajatlari 1 mln so'mga ko'payganda maxsulot ishlab chiqarish real xajmi 5 % ga kamayadi. Bunda maxsulot ishlab chiqarish real xajmi necha so'mni tashkil etadi va unumdorlik qanchaga kamayadi?

6. Korxonada o'tgan yili 120 nafar ishchi kuchi yordamida 150 ming so'mlik mahsulot olingan bo'lsa, bu yil 10 nafar qo'shilgan ishchi yordamida 45 ming so'mlik qo'shilgan mahsulot olindi.

Bu yilgi olingan umumiy mahsulot miqdori qancha?



7. Bozorda bayram oldi iste'mol turlariga narxlar oshib, bayramlar o'tganidan keyin yalpi talab kamaysada, narxlar oldingi darajasiga tezda va xamisha xam qaytib kelavermaydi. Bu holat iqtisodiyotda qanday nomlanadi?

8. «Pigu samarasi» yalpi taklifga qanday darajada ta'sir etishini tushuntirib bering.

9. Korxonaga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalarning ortishi yoki soliq yukining kamayishi ishlab chiqarish xarajatlari va yalpi taklifga qanday ta'sir etadi?

10. Korxonada o'tgan yili 100 nafar ishchi kuchi yordamida 100 ming so'mlik mahsulot olingan bo'lsa, bu yil 20 nafar qo'shilgan ishchi yordamida 30 ming so'mlik qo'shilgan mahsulot olindi. Bu yilgi olingan umumiy mahsulot miqdori qancha?

11. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishning real xajmi 965 mln dollar, resurs xarajatlari 450 mln dollar. Yalpi taklif omili bo'lgan unumdorlikni aniqlang.

12. Ishlab chiqarilgan va sotib olingan maxsulotning real xajmi teng bo'lganda iqtisodiyotning xolatini tushuntirib bering.

13. Oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan narxning 14,5% oshishi taklif miqdorini 19% ga oshishiga olib keldi. Bu holatdagi taklifning egiluvchanlik darajasini aniqlang.

14. . Ishlab chiqarishga sarflangan resurs harajatlari 850 ming so'm, olingan foyda 255 ming so'm bo'lganda ishlab chiqarish samaradorligini aniqlang.

15. Valras modelining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.

16. Shaxsiy daromad 65000 so'm bo'lib, uning 52000 so'mi iste'molga ketsa, iste'molga o'rtacha moyillik necha foizni tashkil etadi?

17. 65000 so'm shaxsiy daromaddan 13000 so'mi jamg'arma sifatida ishlatilsa, jamg'armaga o'rtacha moyillik necha foizni tashkil etadi?

18. Jamg'arish fondi 8.8 mlrd so'm, milliy daromad esa 22 mlrd so'mni tashkil etsa, bunda jamg'arish normasini aniqlang.

19. Qaysi holatda investisiyalash samarali hisoblanadi, kutilayotgan sof foyda normasi foiz stavkasidan ortiq bo'lgandami yoki aksincha foiz stavkasi kutilayotgan sof foyda normasidan ortiq bo'lgandami?

20. 2017 yilda 2016 yilga nisbatan daromad darajasi 300 mlrd. so'mga, iste'mol darajasi 200 mlrd. so'mga oshgan. Iste'molga qo'shilgan moyillik darajasini aniqlang.

21. Milliy iqtisodiyotda 2016 yilda milliy daromad 1500 mlrd. so'm, 2017 yilda 1800 mlrd. so'm, jamgarma esa 2016 yilda 200 mlrd. so'm, 2017 yilda 300 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bunda jamgarmaga qo'shilgan moyillikni aniklang.

22. Jamgarish fondi 12,6 mlrd. so'm, jamgarish normasi esa 60 % bo'lganda milliy daromad necha so'mni tashkil etadi.

23. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Daromad darajasi	Iste'mol (I)	Jamgarma (J)	IO'M	JO'M
1500	1300			
1800	1500			
2200	1700			
2400	3000			

24. Quyidagi qaysi holatda investisiyalash samarali amalga oshiriladi:

a) kutilayotgan sof foyda normasi 10 %, foiz stavkasi esa 7%ni tashkil etadi.

b) foiz stavkasi 12%, kutilayotgan sof foyda normasi esa 10% ni tashkil etadi.

25. Mamlakatda YaMM miqdori 200 mlrd doll., iste'molga o'rtacha moyillik 0,75. YaMM miqdorini 400 mlrd dollarga ko'tarish uchun investisiya miqdori qancha bo'lishi kerak.

26. MPSq0,5 bo'lganda daromadni 2000 birlikka ko'paytirish uchun investisiya miqdori qanchaga oshishi kerak.

27. Mamlakatda milliy daromad bazis yilda 5 mlrd so'mni joriy yilda esa 7,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Joriy yildagi investision sarflar summasi 4 mlrd so'm bo'lganda investisiyalar samaradorligi necha %ni tashkil etadi.


28. Jamg'arish fondi 12,6 mlrd so'm, milliy daromad esa 21 mlrd so'mni tashkil etsa, bunda jamg'arish normasini aniqlang.

29. Mamlakatda milliy daromad 24 mlrd so'm, jamgarish normasi 40 % bo'lganda jamgarish fondi miqdorini aniqlang.




## Ялпи таклиф

Ялпи таклиф – иқтисодиётда ҳар қандай мумкин бўлган нархлар даражасида ишлаб чиқарувчилар ишлаб чиқаришга тайёр бўлган миллий ишлаб чиқаришнинг реал ҳажмидир



## Ялпи талабнинг тузилиши



## Mavzuga oid asosiy tushunchalar

**Iste'molchilik sarflari** - bu aholi joriy daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlari uchun ishlatiladigan qismidir.

**Jamg'arma** - bu aholi, korxonalar va davlat joriy daromadlarining iste'moldan ortgan qismining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadlarida to'planib borishi demakdir.

**Kapital sarflar** - asosiy kapitalni kengaytirish va uni qayta tiklashga, aylanma mablag'larni kengaytirishga qilinadigan sarflar.

**Investitsiyalar** - ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohaslarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirishga, turli xil qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qilingan pul shaklidagi qo'yilmalar.

## Savollar

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarini sanab ko'rsating.
3. Iste'mol va jamg'arma funksiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo'llagan holda tushuntiring.
4. Manfiy va musbat (ijobiy) jamg'arma nima va ularning grafikdagi joylashishi qanday bo'ladi?
5. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz? Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?
7. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.
8. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri qanday?
9. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik modelining mohiyatini tushuntirib bering.
10. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modelining mohiyatini hamda klassik modeldan farqini tushuntirib bering.

## **9-Mavzu.Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik. Milliy iqtisodiyotning muvozanatli va mutanosibli rivojlanishi.**

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li - bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq. Shu sababli mavzu iqtisodiy rivojlanishning mohiyati, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlarini bayon qilish bilan boshlanadi. Mavzu davomida iqtisodiy o'sishning omillari, milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishini, iqtisodiy o'sish borasida mavjud bo'lgan turli modellar mazmunini yoritib berishga ham o'rin ajratiladi.

Milliy iqtisodiyot miqyosida Jamiyatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat asosiy o'rin tutib, bu yalpi taklif (yaratilgan milliy daromad) va yalpi talab (foydalanilgan milliy daromad) o'rtasidagi muvozanatning o'ziga xos namoyon bo'lishidir. Mavzuda dastlab iqtisodiy muvozanat tushunchasi va ishlab chiqarish muvozanati darajasini aniqlashga turlicha yondashuvlar qarab chiqiladi. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish mutanosibliklari tizimi va ularning darajasi hamda tarmoqlararo balansning mazmuni bayon etiladi. Makroiqtisodiy muvozanatga erishishning bozor mexanizmlarini yoritib beriladi.

Mavzuda, shuningdek, iqtisodiy sikllarga, ya'ni iqtisodiyot uchun xususiyatli bo'lgan ishlab chiqarish, bandlilik va narx darajasining davriy tebranishlariga umumiy tavsif beriladi. Keyin iqtisodiy sikl fazalari va davriy tebranishning sabablari qarab chiqiladi. Tahlil davomida tarkibiy va agrar inqirozlarga hamda ularning xususiyatlarini yoritib berishga alohida o'rin ajratiladi.

### **Test**

1. Jamg'arish normasi qand ay aniqlanadi?
  - a) jamg'arish fondining butun milliy daromad hajmiga nisbatining foizdagi ifodasi;
  - b) shaxsiy daromadning iste'mol darajasiga nisbatining foizdagi ifodasi;
  - g) aholi umumiy daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
2. Innovasiya - .....
  - a) yangi texnika-texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun mablag'larni yo'naltirish;
  - b) eksport uchun mablag'larni yo'naltirish;
  - g) xalq xo'jaligi tovarlari importini kuchaytirish;
  - d) to'g'ri javob yo'q.

**3.** Ekstensiv iqtisodiy o'sishga qanday erishiladi?

- a) ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli;
- b) ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan takomillashtirish tufayli;
- c) v) ishchi kuchiga yuqori darajada ish haqi to'lash tufayli;
- d) takomillashgan texnika-texnologiyadan foydalanish tufayli.

**4.** Intensiv iqtisodiy o'sishga qanday erishiladi?

- a) ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan takomillashtirish orqali;
- b) progressiv ishlab chiqarish vositalari va yangi texnikani qo'llash orqali;
- g) mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish orqali;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**5.** Milliy boylik nima?

a) insoniyat jamiyati taraqqiyotida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat boyliklari;

v) yalpi ijtimoiy mahsulotning yangidan hosil qilingan va uning qiymatda ifodalanadigan qismidir;

g) faqat tabiat resurslari majmuining qiymat shakli;

d) to'g'ri javob yo'q.

**6.** Multiplikator samarasini hisoblash qaysi bandda to'g'ri izohlangan?

- a) real SMMdagi o'zgarishning investisiya sarflaridagi o'zgarishga nisbati;
- b) eksport va importni bir-biriga muvofiqlashtirish;
- g) asosiy kapitalni kengaytirish va uni qayt a tiklashga qilinadigan sarflar;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**7.** Quyidagi nisbatlardan qaysi biri inflyasion farqni ifodalaydi?

b)  $SMM < \text{yalpi sarflar}$ ;

v)  $SMM > \text{yalpi sarflar}$ ;

g)  $SMM_q < \text{yalpi talab}$ ;

d)  $SMM > \text{yalpi talab}$ .

**8.** Quyidagi nisbatlardan qaysi biri resession farqni ifodalaydi?

a)  $SMM > \text{yalpi taklif}$ ;

b)  $SMM_q > \text{yalpi taklif}$ ;

c) v)  $SMM > \text{yalpi sarflar}$ ;

d) d) to'g'ri javob yo'q.

**9.** Stagnasiya - bu .....

a) bozordagi keskin vaziyat;

b) xalqaro bitim;

v) iqtisodiyotdagi tang holat;

d) to'g'ri javob yo'q.

**10.** Agrar inqirozlarning asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

a) mahsulotlarning nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishida;

- b) narxlarning pasayishi, daromadlar va foydaning kamayishida;
- v) siklli xarakterga ega bo'lmaslikda va nisbatan uzoq davom etishida;
- d) ishlab chiqarishning qisqarishida.

### **Mashq va masalalar**

1. Tikuvchilik fabrikasining 1-yil ishlab chiqargan mahsulot hajmi 200 ta, korxonada mahsulot ishlab chiqarishni kelgusi yilda 2 hissa ko'paytirish uchun mavjud korxonada bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxonada quradi. Bunda iqtisodiy o'sishning qaysi turi amalga oshdi?
2. Agar o'tgan yili real YaMM 80 mlrd so'mni va joriy yilda 95 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu holda iqtisodiy o'sish sur'atini aniqlang.
3. Real mahsulot o'sishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab bering.
4. Agar YaMM bazis yilda 300 mlrd so'm, joriy yilda 500 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, uning o'sish sur'ati necha % ni tashkil etadi.
5. Iqtisodiy resurslar miqdorining ishlab chiqarish natijasidan tez o'sib borishi iqtisodiy o'sishning qaysi tipini xarakterlaydi.
6. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab bering.
7. Ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish, texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishning 2 hissa oshirish iqtisodiy o'sishning qaysi turi orqali amalga oshiriladi?
8. Milliy boylikning 3ta yirik tarkibiy qismlarini ta'riflab bering.
9. Mamlakat aholisining soni 2016 yilda 32 mln kishi, real YaMM ning xajmi 640 mln dollar, 2017 yilda esa axoli soni 26 mln kishi, real YaMM xajmi esa 965 mln dollar. Axoli jon boshiga real YaMM ning o'sish sur'atini aniqlang.
10. Agar o'tgan yili YaMM 130 mln dollar, o'sish sur'ati 115,4% bo'lsa, joriy yildagi real YaMM xajmi qancha miqdorni tashkil etadi.
11. YaMM ishlab chiqarish uchun resurs xarajatlari 720 mln dollar, olingan umumiy foyda 125 mln dollar bo'lganda ishlab chiqarish samaradorligini aniqlang.
12. Agar nominal YaMM 6% ga oshsa, narx-navo esa 10 % ga oshsa, real YaMM qanchani tashkil etadi?
13. Mamlakatda axoli soni 1% ga oshsa, real YaMM esa 3%ga ko'paysa, axoli jon boshiga to'g'ri keladigan real YaMM miqdori oshadimi yoki kamayadimi?
14. Iqtisodiy muvozanatlilik va iqtisodiy mutanosiblik o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.
15. Investision sarflarning 8 mlrd so'mga ko'payishi SMM ning 24 mlrd so'mga ko'payishiga olib kelsa, multiplikator samarasi qanday miqdorni tashkil etadi?



16. Agar investision sarflar 4,7 mlrd so'mga ko'payganda multiplikator samarasi 3,5 ga teng bo'ladi. Bunda SMM dagi o'zgarishni aniqlang.

17. Joriy yilda har birining narxi 2 dollardan bo'lgan 200 birlik iste'mol tovarlari va xar birining narxi 4 dollar bo'lgan 10 birlik investision tovarlar ishlab chiqarilgan. YaMM xajmini xisoblang.

## Iqtisodiy o'sishning o'lchanishi:

Iqtisodiyotda real ishlab chiqarishning absolyut qo'shimcha o'sishi

$$D Y_t = Y_t - Y_{t-1}$$

Aholi jon boshiga real ishlab chiqarishning absolyut qo'shimcha o'sishi

$$D y_t = y_t - y_{t-1}$$

Iqtisodiyotda real ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari

$$Y_t = D Y_t / Y_{t-1} - 1$$

Aholi jon boshiga real ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari

$$y_t = D y_t / y_{t-1} - 1$$

bu yerda t – vaqt indeksi

### Mavzuga oid asosiy tushunchalar

**Iqtisodiy o'sish** - yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilaniishi va tarkibining takomillashuvi orqali ifodalanadi.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sishga** ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi.

**Intensiv iqtisodiy o'sish** ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish - yanada ilg'orroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi.

**Milliy boylik** - bu insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.



## Savollar

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalarining ta'rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.

2. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi? Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o'sish turlari uchramaydi?

3. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishining samaradorligiga baholashda iqtisodiy o'sishning qanday ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?

4. Iqtisodiy o'sish gata'sir qiluvchi taklif, taqsimlash va talab o'zgarishlarining ahamiyatini baholang.

5. Milliy boylik tushunchasining ta'rifini bering va tarkibiy tuzilishini ko'rsating.

6. Milliy boylik tarkibi damoddiy – buyumlashgan boylik qanday o'ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi?

7. Nima uchun, suvkabi tabiiy boyliklarni qiymatlash o'lchovidan baholab, milliy boylik tarkibi qanday kiritish mumkin emas?

8. Madaniy, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklarining milliy boylik tarkibida aks etishini qanday izohlaymiz? Ularning har biriga misollar keltiring.

9. Iqtisodiy muvozanatlik, xususiy va umumiy muvozanatliklarga tavsif bering. Ularga misollar keltiring.

10. Quyidagi ikki usul, ya'ni: a) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli; b) jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli yordamida muvozanatli SMM grafikda qanday aniqlanishini tushuntiring.

11. Multiplikator samarasi nima? Investitsion sarflarning o'zgarishi va multiplikator miqdori o'rtasidagi bog'liqlik qanday? Agar jamg'armaga o'rtacha moyillik 0; 0,4; 0,6 ga teng bo'lsa, multiplikator qanday bo'ladi? Agar tadbirkor investitsiyalari darajasini 8 mln.so'mga ko'paytirsa, iste'molga o'rtacha moyillik esa 4/5 ga teng bo'lsa, SMM qanday o'zgaradi?

12. Akselerator samarasi nima va u iqtisodiy muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

13. Avtonom va hosilaviy investitsiyalarning farqi nimada? Ularga ta'sir etuvchi omillar ham farqlanadimi?

### **10-Mavzu. Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy beqarorlik. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik.**

Bu mavzuda dastlab iqtisodiy sikllarga, ya'ni iqtisodiyot uchun xarakterli bo'lgan ishlab chiqarish, bandlilik va narx darajasining davriy tebranishlariga

umumiy tavsif beramiz. Keyin iqtisodiy sikl fazalarining va davriy tebranishning sabablarini qarab chiqamiz. Taxlil davomida tarkibiy va agrar inqirozlarga xamda ularning xususiyatlarini yoritib berishga aloxida o'rin ajratamiz.

Taxlilni ishlab chiqarishning shaxsiy omili va jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan ishchi kuchini takror hosil qilish hamda uning xususiyatlari bilan bog'lik muammolarni bayon qilish bilan boshlaymiz. Tahlil davomida ishchi kuchi bozori va ishsizlik muammolarini batafsil qarab chiqamiz. Bu muammolar o'z ichiga ishsizlikning turlari va uning darajasini aniqlash usullari, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash kabi masalalarni ham oladi.

### **Test**

- 1. Iqtisodiy sikl qanday harakatni ifodalaydi?**
  - a) milliy iqtisodiyotning bir iqtisodiy inqirozidan ikkinchisi boshlanguncha takrorlanib turadigan harakati
  - b) iqtisodiyotning yuqorilab boruvchi chiziq shaklidagi harakati
  - c) ishlab chiqarish o'sish sur'atlarining o'zgarishi
  - d) takror ishlab chiqarish bosqichlarining almashinishi
- 2. Iqtisodiy siklning fazalari qaysilar?**
  - a) inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish
  - b) turg'unlik, jonlanish, inqiroz, yuksalish
  - c) jonlanish, yuksalish, inqiroz, turg'unlik
  - d) yuksalish, turg'unlik, inqiroz, jonlanish
- 3. Iqtisodiy inqiroz deb nimaga aytiladi?**
  - a) ishlab chiqarish xajmining keskin tushib ketishiga, bozorda tovarlar miqdorini ko'payib ketishi
  - b) bozorda tovarlar miqdorini kamayib ketishi
  - c) ishlab chiqarishni jadallashuvi
  - d) ishlab chiqarish xajmining kamayishi
- 4. Agrar inqirozlarning asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?**
  - A. narxlarning pasayishi, daromadlar va foydaning kamayishida
  - B. siklli xaraktyerga ega bo'lmaslikda va nisbatan uzoq davom etishida
  - C. ishlab chiqarishning qisqarishida
  - D. mahsulotlarning nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishida
- 5. Ishsizlik deganda...**
  - a) O'ziga ish topolmasdan, mehnat rezervi armiyasiga aylangan aholining iqtisodiy faol qismi tushuniladi;
  - v) ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlashini kutayotgan aholi tushuniladi;
  - g) Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan aholi tushuniladi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

6. Friksion ishsizlik deganda:

a) iste'molchilik talabi va texnologiyadagi turli hududlarda, turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklif nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

v) ish joylarini o'zgartirish tufayli ishdan bo'shab qolib malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;

g) ishlashni xoxlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

7. Siklik ishsizlik deganda...

a) iqtisodiy siklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

v) iste'molchilik talabi va texnologiyaning o'zgarishi tufayli turli hududlarda turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

g) ishlashni xoxlamaydigan ishsizlar tushuniladi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

### **Mashq va masalalar**

1. Iqtisodiy siklning yuksalish fazasida ish bilan bandlar soni 12,5 mln kishini tashkil etgan, iqtisodiyotning stagnasiya xolatida ishsizlar soni 1,6 mln kishiga yetgan. Ishsizlik darajasini aniqlang. . Iqtisodiyotning stagflyasiya holatini tushuntirib bering.

2. Iqtisodiyotning stagflyasiya holatini tushuntirib bering

3. Ish bilan bandlar 85 mln kishi, ishsizlar soni 15 mln kishi, ishsizlik darajasini aniqlang.

4. 85 mln ish bilan bandlardan 0,5 mln kishi ishdan bo'shatildi, ro'yxatdagi 15 mln ishsizlardan 1mln kishi ishga joylashdi. Ish bilan bandlar soni, ishsizlik soni va ishsizlik darajasini aniqlang.

5. Agrar inqirozlarning cho'zilib ketishining asosiy sabablarini tushuntirib bering.

6. Nominal YaMM 750 mlrd dollar, ishsizlikning tabiiy darajasi 5 %, xaqiqiy ishsizlik darajasi 9%. Mamlakatda ishlab chiqarilgan maxsulot xajmi qanchaga kamaygan?

7. Iqtisodiy sikl nazariyalarini ta'riflab bering.

8. Agar mamlakatda ishchi kuchi 12,5 mln kishini, ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil qilsa, ishsizlik darajasi necha foizni tashkil qiladi?

9. Artur Ouken qonunini izoxlab bering.

10. Ishsizlikning tabiiy darajasi 4% ni, haqiqiy darajasi 9,3 % ni tashkil qilsa, Ouken qonuni bo'yicha YaMM ning orqada qolishi necha foizni tashkil qiladi?

11. Milliy iqtisodiyotda nominal YaMM 560 mlrd so'mni, ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiqqligi tufayli YaMM ning orqada qolishi 9,65% ni tashkil qilsa iqtisodiyot qancha mahsulot yo'qotgan bo'ladi?

12. Ishsizlik darajasi 7,5% yoki ko'zda tutilgan 4% li tabiiy darajadan 3,5% yuqori bo'lgan. Bunda YaMM ning orqada qolishi qanchaga teng?

13. Mamlakatda yil boshida ish bilan bandlar soni 180 mln kishi, ishsizlar soni esa 20 mln kishi. Yil davomida xar oyda o'rtacha 1% ishchilar turli sabablarga ko'ra ishdan bo'shagan, ishsizlar sonidan 20 %i esa ishga joylashgan. Ishsizlikning tabiiy darajasini aniqlang.

14. Ishchi kuchi 15,5 mln kishini, ishsizlik darajasi 11,6% ni tashkil etsa ishsizlar sonini aniqlang.


15. Artur Ouken qonuniga binoan ishsizlik darajasining 1 foizga oshishi YaMM ning necha foizga kamayishiga olib keladi?

16. Milliy iqtisodiyotda nominal YaMM 330 mlrd so'm, ishsizlikning necha foizli tabiiy darajasiga erishilganda iqtisodiyot 29 mlrd so'mlik maxsulotni yo'qotgan bo'ladi?

17. Mamlakatda nominal YaMM 650 mlrd so'mni, ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiqqligi tufayli YaMM ning orqada qolishi 9,65 % ni tashkil qilsa, iqtisodiyot qancha maxsulot yo'qotgan?

18. Mamlakatda ishsizlikning tabiiy darajasi 9,5 yoki ko'zda tutilgan 5 % tabiiy darajadan 4,5 % yuqori bo'lgan. Bunday xolatda YaMMning orqada qolishi qanchaga teng?

19. Iqtisodiyotni inqirozga uchraganligi sababli o'z ish o'rnini yo'qotganlar ishsizlikning qaysi kategoriyasiga mansub?



Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlikni uyidagi turlari mavjud:

- 1) friktsion;
- 2) tarkibiy;
- 3) tsiklik;
- 4) institutsional;
- 5) texnologik;
- 6) regional;
- 7) yashirin;
- 8) turg'un ishsizlikdir.



### Savollar

1. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday? Iqtisodiy inqirozlar mohiyati nimada ifodalanadi?
2. Iqtisodiy tsiklning ta'rifini bering va uning har bir fazasining o'ziga xos belgilarini ko'rsating.

3. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. TSikli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko'rsating.
4. Agrar inqirozlarning xususiyatlarini bayon qiling.
5. Iqtisodiy tsikl asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko'rsating.
6. Iqtisodiy tsiklning oqibatlarini baholang.
7. Ishchi kuchini takror hosil qilish deganda nimani tushunasiz va uning xususiyatlari qanday?
8. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog'liq? Fan-texnika taraqqiyotida ishchi kuchining sifatiga qanday talablar kuchayadi?
9. Ish bilan to'la bandlik nima uchun nisbiy ma'noda tushuniladi? Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?
10. Ishsizlikning asosiy turlariga tavsif bering.
11. Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?
12. Ishsizlikning tabiiy darajasi nimani anglatadi va u qanday tartibda aniqlanadi?
13. Oukun qonunining mohiyati nimada namoyon bo'ladi?
14. Ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tushuntirib bering.

### **11-Mavzu. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli.**

Yalpi milliy mahsulotni yaratish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonida pul mustaqil harakat qilib, turli xo'jalik yurituvchi bo'g'inlar, uy xo'jaliklari va davlatning pul mablag'lari fondini tashkil etadi. Pul fondlari hosil bo'lish manbalari va amal qilish tavsifi, maqsadlari va foydalanish usullariga qarab Moliya va kredit shakllari tusini oladi. Mavzuda Moliya tizimi, uning asosiy bo'g'ini bo'lgan davlat byudjeti va byudjet mablag'larining shakllanishida soliqlarning roli bayon etiladi.

Pul va u bilan bog'liq munosabatlarni tahlil qilish, iqtisodiyot nazariyasi fanining eng muhim sohasini tashkil qiladi.

Pulning harakati bozor iqtisodiyotining Moliyaviy asoslaridan biri bo'lib, uning barqarorligi pul tizimi daromadlar va xarajatlar aylanishiga hayotiy tus bag'ishlaydi, butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlab beradi, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga imkon tug'diradi va to'liq bandlikka erishishni ta'minlaydi. Shuningdek ushbu mavzuda markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari pul muomalasi qonunlari, pulga bo'lgan talab va taklif, inflyatsiyaning mohiyati ochib beriladi. Tahlilning keyingi bosqichi kredit tizimi, banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roliga bag'ishlanadi.

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi o'ziga xos o'rinlarga ega bo'lib, har biri mustaqil amal qiladi. Shu bilan birga dunyodagi turli xil iqtisodiy

tizimlar bir- biridan iqtisodiyotini boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining nisbati bo'yicha keskin farqlanadi. Masalan, bir iqtisodiy tizim ko'proq davlat tomonidan boshqarishga tayansa, boshqasi bozor mexanizmi orqali tartiblashga ustunlik beradi. Mazkur mavzuda bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning rolini ochib berishga harakat qilinadi.

Dastlab davlatning milliy iqtisodiyotdagi roli qarab chiqilib, keyin uning iqtisodiy vazifalari tavsifi beriladi. Mavzu davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullarini yoritib berish bilan yakunlanadi.

### Test

1. Moliyaviy munosabatlarning mohiyati qaysi bandeda to'la yoritilgan.
  - a) pulning harakati ya'ni uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar;
  - b) faqat aholi keng qatlamlari qo'lidagi pul mablag'larining ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;
  - v) chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar pul mablag'larining harakati bilan bog'lik bo'lgan munosabatlar;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
2. Soliqlar tushunchasining mazmuni qaysi bandeda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - a) soliqlar iqtisodiy tushuncha sifatida sof daromadning bir qismini ixtiyoriy ravishda byudjetga jalb qilishning shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etadi;
  - b) soliqlar davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan huquqiy shaxslar daromadining bir qismini majburiy, jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini esa ixtiyoriy ravishda byudjetga jalb etish shaklidir;
  - v) soliqlar davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan huquqiy shaxslar daromadining bir qismini ixtiyoriy, jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini esa majburiy ravishda byudjetga jalb etish shaklidir;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
3. Soliq stavkasi qanday aniqlanadi?
  - a) soliq summasining soliq olinadigan daromad summasiga nisbatining foizdagi ifodasidir;
  - v) soliq olinadigan daromad summasidan soliq summasi ayriladi;
  - v) soliq summasining soliq olinadigan daromad summasiga ko'paytmasi;
  - d) to'g'ri javob yo'q.
4. Byudjet ..... - bu
  - a) davlat, korxonalar, muassasalar qonuniy tartibda pul ifodasidagi daromad va sarf-xarajatlari;

b) davlat, korxonalar, muassasalarining qonuniy tartibda pul ifodasidagi sarf-xarajatlari;

c) v) davlat, korxonalar, muassasalarining qonuniy tartibda pul ifodasidagi daromadlari;

d) d) to'g'ri javob yo'q.

**5. Pul emissiyasi nima ma'noni anglatadi?**

a) iqtisodiyotga qo'shimcha pul massasini chiqarish

b) pullarni almashtirish

c) iqtisodiyotdan qo'shimcha pul massasini yig'ib olish;

d) pul chiqarishni kamaytirish

**6. Banklarning vazifalari**

a) bo'sh pul mablag'larini to'playdi va qarz beradi

b) aholining bo'sh pullarini saqlaydi

c) qarz beradi

d) qarz oladi

**7. Kredit munosabatlari -bu..**

a) bo'sh pul mablag'larining jamlash va uni qarzga berish, davlat tomonidan qarz berish, axolidan qarz olish

b) davlat tomonidan qarz berish

c) axolidan qarz olish

d) axoliga qarz berish

**8. Devalvatsiya -**

a) boshqa mamlakatlar valyutasiga nisbatan milliy yoki xalqaro pul birligi kursining pasayishi

b) biror davlat pul birligi qadrining oshishi

c) fuqarolarning bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov

d) yalpi daromadidan olinadigan majburiy to'lov

**9. Inflyatsiya - bu**

a) Milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi;

b) eksportni importga nisbatan nihoyatda ortib ketishi;

v) muomaladagi pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pullarning ko'payib ketishi;

d) barcha javoblar to'g'ri.

**10. Deflyatsiya - bu**

a) milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishini bildiradi;

b) eksportning importga nisbatan nihoyatda ortib ketishini bildiradi;

v) narx-navoning pasayishini, pul qadrining ortishini bildiradi;

d) ijtimoiy mahsulotning pasayishi va ishsizlikning ko'payishini bildiradi.



11. Kreditning mazmuni qaysi bandeda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) O'z mulki bo'lgan pul resurslarini xoxlagan vaqtda, hech bir xarajatsiz ishlatish;

b) o'zgarar pul mablag'ini ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va muddati kelganda qaytarish;

v) davlat yoki mahalliy byudjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan ajratilgan mablag'.

d) to'g'ri javob yo'q.

### Mavzuga oid asosiy tushunchalar

**Moliya** - bu pul mablag'larining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardir.

**Moliya tizimi** - bu moliyaviy munosabatlar va ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi turli darajadagi moliyaviy muassasalardir.



**Davlat byudjeti** - bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir.

**Soliqlar** - bu davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan xuquqiy va jismoniy shaxslar daromadining bir qismini byudjetga jalb qilish shaklidir.

### Krassvord

1. doimiy xarajat tarkibi 2. Tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajat 3. ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga ta'sir etadigan xarajatlar 4. Talab va taklif egri chiziqlari kesishgan joyda qanday muvozanat yuzaga keladi 5. Bozor iqtisodiyotida iste'molchilar oldida turgan to'siq 6. Bozorga tovar va xizmatlarni ayriboshlashda umumiy ekvivalent ro'lini bajaruvchi maxsus tovar 7. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy isloxlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri 8. Mulkiy munosabatlar ishtirokchilari mulkchilik nimalari deyiladi 9. Korxonalar xarajatlari 10. talab va taklif ta'sirida shakllanadigan bozor narxi 11. Xissadorlik jamiyati moliyaviy mablag'larini ko'paytirish uchun chiqarilgan qimmatli qog'oz. 16. Jaxon xo'jaligi

doirasidagi iqtisodiyot 12. narx darajasining kamayishi 13. YaIM-(13)=SMM 14. Yalpi talabga ta'sir etuvchi omillar 15.kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borilishi




- ❖ To`g`ri soliqlar
- ❖ Egri soliqlar
- ❖ Mulk solig`l va resurs to`lovlari.
- ❖ Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq .
- ❖ Boshqa daromadlar.

- ❖ Ijtimoiy sohaga
- ❖ Ijtimoiy himoyaga
- ❖ Iqtisodiyot uchun xarajatlar
- ❖ Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari
- ❖ Davlat hokimiyati , boshqaruv va sud organlariga xarajatlar
- ❖ Boshqa xarajatlar

**Budjet taqchilligi** – bu davlat budjeti xarajatlarining uning daromadlaridan ortiqchaligidir .

**Budjet taqchilligining aniqlanishi:**

- ❖ taqchillikning mutloq miqdorida.
- ❖ taqchillikning YAİM miqdoriga nisbiy o`lchamida.



### 1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi

**Moliya** - pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimidir. Uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlar vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.



**Moliyaviy munosabatlarning obyektlari** - iqtisodiyotning turli darajalarida tarkib topuvchi va harakat qiluvchi pul mablag'lari fondlari hisoblanadi.

**Moliyaviy munosabatlar subyektlari** - ularga barcha tashkilotlar, korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslar, fuqarolar kiradi.

#### Moliya vazifalari:

1. Moliyaviy ta'minlash va xizmat ko'rsatish vazifasi.

Mamlakatni boshqarish, mudofaa qobiliyatini ta'minlash, huquq-tartibot ishlarini yo'lga qo'yish, sog'liqni saqlash, madaniy-ma'rifiy ishlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi

## Savollar

1. Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.
2. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
3. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
4. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
5. Talab va taklif inflyatsiyalarining grafikdagi ko'rinishlarini tasvirlang va izohlang.
6. Giperinflyatsiya qanday qilib turg'unlikka olib kelishi mumkinligini tushuntiring.
7. Kreditni nima zarur qilib qo'yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.
8. Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning tavsifini bering. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?
9. Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko'rsating.
10. Hozirda O'zbekistonda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash borasida qanday chora-tadbirlar tizimi qo'llanilmoqda?
11. Davlatning iqtisodiyotdagi rolga turlicha qarashlarini baholang?
12. Davlat asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?
13. Bozoriqtiyotisharoitidaiqtisodiyotnidavlattomonidantartibgasolishning zarurligininimataqozoqiladi? Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
14. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
15. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o'ynaydi? Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?

### **12-Mavzu. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati.**

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi o'ziga xos o'rinlarga ega bo'lib, har biri mustaqil amal qiladi. Shu bilan birga dunyodagi turli xil iqtisodiy tizimlar bir- biridan iqtisodiyotini boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining nisbati bo'yicha keskin farqlanadi. Masalan, bir iqtisodiy tizim ko'proq davlat tomonidan boshqarishga tayansa, boshqasi bozor mexanizmi orqali tartiblashga ustunlik beradi. Mazkur mavzuda bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning rolini ochib berishga harakat qilinadi.

Dastlab davlatning milliy iqtisodiyotdagi roli qarab chiqilib, keyin uning iqtisodiy vazifalari tavsifi beriladi. Mavzu davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullarini yoritib berish bilan yakunlanadi.

Mavzu aholi daromadlarining iqtisodiy mazmuni, turlarini bayon qilish hamda uning darajasini belgilab beruvchi asosiy omillarni qisqacha tavsiflash bilan boshlanadi. Keyin bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining asosiy sabablari ko'rib chiqiladi. Daromadlar tengsizligi borasida bildirilgan fikrlar Tahlil

qilinib, tengsizlik va samaradorlik o'rtasidagi nisbat ko'rsatib beriladi. Mavzu kambag'allik muammosi, aholi daromadlarining yetarli darajasini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini qarab chiqish bilan yakunlanadi.


### Test

1. Inflyatsiya - bu
  - a) Milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi;
  - b) eksportni importga nisbatan nihoyatda ortib ketishi;
  - g) muomaladagi pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pullarning ko'payib ketishi;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
2. Deflyatsiya - bu
  - a) milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishini bildiradi;
  - b) eksportning importga nisbatan nihoyatda ortib ketishini bildiradi;
  - g) narx-navoning pasayishini, pul qadrining ortishini bildiradi;
  - d) ijtimoiy mahsulotning pasayishi va ishsizlikning ko'payishini bildiradi.
3. Kreditning mazmuni qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - a) O'z mulki bo'lgan pul resurslarini xoxlagan vaqtda, hech bir xarajatsiz ishlatish;
  - b) o'zgarar pul mablag'ini ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va muddati kelganda qaytarish;
  - g) davlat yoki mahalliy byudjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan ajratilgan mablag'. d) to'g'ri javob yo'q.
4. Respublikada ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishini ko'rsating.
  - a) axolining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash;
  - b) faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;
  - g) daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib berish;
  - d) barcha javoblar to'g'ri.
5. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatning tub mohiyati nimalarda ko'rinadi?
  - a) ijtimoiy tabaqalar o'rtasida mumkin qadar tenglik tamoyilining joriy qilinishida;
  - b) millatlararo hamjihatlikni va xalqaro totuvlikni vujudga keltirishda;
  - v) kam ta'minlangan ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini himoya qilish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda;
  - d) ish haqi darajasini oshirishda.
6. Subsiya nima?
  - a) baholar orasidagi farqni davlat tomonidan qoplab berilishi;
  - b) moliyaviy nochor korxonalarini iqtisodiy jihatdan quvvatlash vositasi;
  - g) ijtimoiy fondlarga to'lovlar;
  - d) bozorning muvozanat nuqtasi.
7. «Transfert to'lovlari» - deganda:
  - a) bozor sektoriga yollangan ishchilarning ish haqi;
  - b) davlat sektoridagi xizmatchilarning daromadlari;
  - g) kichik mulkdorlar daromadi (foyda, renta, foiz, dividend);



d) kam ta'minlangan aholi guruhlariga, nogironlarga, qariyalarga, boquvdagi kishilarga, ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar.

### Krassvord

1. Iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji 2. Insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyati 3. Arab leksikonida tejamkorlik ma'nosida tushunilgan 4. Ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilishi 5. Mulkchilik shakllari 6. Biror bir nafilikka yoki qiymatga ega bo'lgan mehnat mahsuli 7. Tarmoqdagi bir nechta ishlab chiqaruvchilar hukumronligi 8. Bozordagi yakka hukmronlik 9. Dunyo miqyosida 10. Bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatleri to'qnashuvi 11. Mulkchilik munosabatlari 12. Qimmatli qog'oz 13. Foiz olish sharti bilan qo'yilgan pul 14. Iste'molchi va sotuvchi uchrashadigan joy 15. Barcha boylik savdoda g'oyasini ilgari surgan oqim







### 1. Bozor iqtisodiyotini tartibga solish zarurligi va uning amalga oshirilishi to`g`risidagi nazariy qarashlar.

#### Iqtisodiyotni tartibga solish yo`llari.

- ❖ O`z -o`zini tartibga solishning bozor mexanizmlari amal qilishi.
- ❖ Iqtisodiyotni markazlashgan tarzda ma`muriy usullar yordamida tartibga solish.
- ❖ Tartibga solishga davlatning aralashuvini bozor mexanizmlari bilan uyg`unlashtirish orqali erishish.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish to`g`risidagi qarash **Djon Meynard Keyns**ga tegishli. U "Ish bilan bandlik, prosent va pulning umumiy nazariyasi"(1936 yil.) kitobida iqtisodiy inqiroz va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiyotga aralashuvini taqozo qiladi. Shu sababli davlat fiskal va monetar tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag`batlantirishi va aholining ish bilan bandligini ta`minlashi zarur degan g`oyani ilgari suradi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini cheklash va tartiblashda bozor mexanizmiga ustuvorlik berish masalasi birinchi marta **A. Smit** tomonida asoslab berilgan.  
(“Xalqlar boyligining tabiati va sabablari xususida tadqiqot ”asarida)

### **A.Smitning iqtisodiyotini tartibga solishning bozor mexanizmi xususidagi uchta asosli qoidasi.**

- ❖ Bozorni tartibga solishga davlat aralashmasligi lozim uning vazifasi tinchlikni saqlash, meʼyorida soliqlar belgilash, adolatli sud qilishni taʼminlash bilan cheklanishi zarur
- ❖ Bozorni tartibga soluvchi asosiy kuch – bu “ koʻrinmas qoʻl”, yaʼni talab, taklif va raqobat .
- ❖ Bozor oʻz- oʻzini boshqaradi. Buni bozor talabi va tovar taklifining oʻzaro bogʻliqligini taʼminlaydi.

### **Savollar**

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang?
2. Davlat asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi? Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rolni o'ynaydi?
6. Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?
7. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz? Ijtimoiy adolatni ta'minlashda bu siyosatning roli qanday?
8. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.
9. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar xarakterlab beradi?
10. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko'rsating va ularga tushuntirish bering.
11. O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlariga o'z fikringizni bildiring.



### **13-Mavzu. Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.**

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi rivojining muhim tamoyili milliy xo'jaliklarning baynalminallashuvi, shu asosda jahon xo'jaligi va avvalo jahon bozorining shakllanishi va rivojlanishidan iborat. Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, uning milliy xo'jaligi ko'p darajada nafaqat bu mamlakatning ichki imkoniyatlari bilan, balki uning xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotida qatnashish darajasi va miqyosi, butun insoniyat resurslari bilan aniqlanadi.

Ushbu mavzuda jahon xo'jaligining tarkib topishi, bunda ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va globallasuv jarayonlarining o'rnini, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, jahon infratuzilmasining rivojlanishi, jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish masalalari bayon etiladi.

Hozirgi zamon jahon xo'jaligi rivojining muhim tamoyili milliy xo'jaliklarning baynalmilallashuvi, shu asosda jahon xo'jaligi va avvalo jahon bozorining shakllanishi va rivojlanishidan iborat. Bu insoniyat taraqqiyoti uchun ijobiy bo'lgan jarayonga yetmish yildan ortiq davr davomida dunyoning ikki qarama-qarshi ijtimoiy siyosiy tizimiga bo'linganligi qarshi ta'sir ko'rsatib keldi. Hozir yangi davr boshlandi, dunyoning iqtisodiy rivojlanishi va shunga mos ravishda bizning respublika bilan jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning butunlay yangi imkoniyatlari vujudga keldi.

O'zbekiston va jahon hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi har tomonlama aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvi har ikki tomon uchun iqtisodiy va siyosiy jihatdan foydali hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, uning milliy xo'jaligi ko'p darajada nafaqat bu mamlakatning ichki imkoniyatlari bilan balki uning xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotida qatnashish darajasi va miqyosi, butun insoniyat resurslari bilan aniqlanadi.

Bu holatlar jahon xo'jaligi aloqari va milliy xo'jaliklarning iqtisodiy rivojlanish muammolarini alohida tahlil qilishni taqozo qiladi.

Xalqaro integratsiyaning mohiyati, maqsad va shakllari bayon etiladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning turlicha nazariyalari tahlil etilib, jahondagi asosiy integratsion guruhlar ko'rib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari bilan bog'langan murakkab iqtisodiy munosabatlari tizimida xalqaro savdo munosabatlarining tutgan o'rnini tahlil qilinib, xalqaro savdoning rivojlanishi, omillari va tuzilishi qarab chiqiladi. Xalqaro munosabatlarning Moliyaviy yoki valyutaga oid tomonlari bayon etiladi. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, valyuta tizimi, valyuta kursi va valyuta siyosati, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bayon etiladi.

## Test

1. O'zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda qanday tamoyillarga amal qilmoqda?

- a) faqat umuminsoniy manfaatlarni inobatga olish;
- b) faqat milliy manfaatlar asosida ish yuritish;
- v) sinfiy va umuinsoniy manfaatlarga asoslanish;
- g) umuminsoniy va milliy manfaatlarning mushtarakligi asosida ish yuritish;

2. OPEK tashkilotiga a'zo davlatlar qanday faoliyatlar bilan shug'ullanadi?

- a) metallurgiya sohasida;
- v) mashinasozlik sohasida;
- g) neftni ishlab chiqarish va sotish bilan;
- d) yengil sanoat sohasida.

3. Import - ...

- a) iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha tuzilgan shartnoma;
- b) xorijiy mamlakatlarga sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning umumiy miqdori;
- v) mahalliy rezidentlar tomonidan xorijdan xarid qilingan tovar va xizmatlar umumiy miqdori;
- d) to'g'ri javob yo'q.

4. Valyuta kurslarining o'zgarishiga qanday omil ta'sir ko'rsatadi?

- a) mamlakatlar milliy daromadining o'zgarishi;
- b) xalqaro narxlardagi nisbiy o'zgarishlar;
- v) milliy valyutalarga talab va taklifning o'zgarishi;
- g) yuqoridagi barcha omillar;
- d) to'g'ri javob yo'q.

5. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli?

- a) erkin savdo zonalari
- b) boj ittifoqi
- c) to'lov ittifoqi
- d) umumiy bozor

6. Halqaro mehnat taqsimoti:

- a) aholining migratsiyasi va chiqib ketishi, ixtisoslashuv
- b) aholining migratsiyasi
- c) mamlakatlarga boshqa mamlakatlardan ishchilarning kirib kelishi
- d) ayrim mamlakatlarning tovarlarning ixtisoslashuvi

7. Respublika iqtisodiyotining kelajagi nimaga bog'liq?

- a) jahon ho'jaligiga qo'shilishga
- b) ichki rezervlarni ishga solishga
- c) davlat mulkini hususiylashtirilishiga
- d) ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratilishiga

8. Import -bu..

- a) mahalliy rezidentlar tomonidan xorijdan xarid qilingan tovar va xizmatlar umumiy miqdori
- b) iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha tuzilgan shartnoma
- c) xorijiy mamlakatlarga sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning umumiy miqdori

- d) ish va xizmatlarning umumiy miqdori
9. Eksport -bu..
- a) xorijiy mamlakatlarga sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning umumiy miqdori
- b) mahalliy rezidentlar tomonidan xorijdan xarid qilingan tovar va xizmatlar umumiy miqdori
- c) iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha tuzilgan shartnoma
- d) mahalliy rezidentlar tomonidan xorijdan xarid qilingan tovarlar miqdori
10. Quyidagilardan qaysi biri erkin savdo yo'lidagi tarifli to'siqlar hisoblanadi?
- a) boj to'lovlari va import kvotalari,
- b) litsenziyalash tizimi
- c) mahsulotlar sifatiga standartlar qo'yish
- d) boj to'lovlari
11. Valyuta kurslarining o'zgarishiga qanday omil ta'sir ko'rsatadi?
- a) milliy valyutalarga talab va taklifning o'zgarishi, xalqaro narxlardagi nisbiy o'zgarishlar, nisbiy real foiz stavkalarining o'zgarishi
- b) milliy valyutalarga talab va taklifning o'zgarishi
- c) xalqaro narxlardagi nisbiy o'zgarishlar
- d) nisbiy real foiz stavkalarining o'zgarishi
12. OPEK tashkilotiga a'zo davlatlar qanday faoliyatlar bilan shug'ullanadi
- a) neftni ishlab chiqarish va sotish bilan
- b) mashinasozlik sohasida
- c) metallurgiya sohasida
- d) engil sanoat sohasida

### Mashq va masalalar

1) «Alfa» mamlakatda A va B tovarlarning ishlab chiqarish harajatlari 1 A : 4 B nisbatda, «Beta» mamlakatda esa 1A : 2 B. Bu tovarlarni jahon bozorida narxlari o'rtasidagi nisbat esa 1 A: 2 B har bir mamlakat uchun savdo imkoniyatlari chizig'ini tasvirlang.

2) «Alfa» va «Beta» mamlakatlari bir xil burchak ostidagi transformasiya egri chizig'iga ega. Ushbu mamlakatlar o'rtasida savdo munosabatlarini o'rnatish samarali bo'ladimi?

3) A.Smitning mutloq nazariyasiga ko'ra, qaysi mamlakat qanday tovarlar ishlab chiqarishi maqsadga muvofiqligini aniqlang.

Mamlakat	A	B	S	D
Alfa	5	8	7	4
Beta	4	10	7	6

4) Quyidagi jadvalda «Alfa» va boshqa mamlakatlarda harakatlar birligiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

Ishlab chiqaruvchi	Gazmol ishlab chiqarish (harajatlar birligiga)	Qand ishlab chiqarish (harajatlar birligiga)
«Alfa» mamlakat	100	300
Boshqa mamlakatlar	200	400

Qiyosiy ustunlik tamoyilidan va harajatlar o'zgarmasligi hamda faqat ikkita tovar ishlab chiqarilishini nazarda tutib quyidagilarni aniqlang:

a) «Alfa» mamlakat gazmol va qand ishlab chiqarishda mutloq va qiyosiy ustunlikka egami?

b) Narxlar nisbati qanday bo'lganda, qaysi tovarni «Alfa» mamlakat boshqa mamlakatlar bilan savdo qilishi kerak.

5) Agar ma'lum tovarning qismlari turli mamlakatlarda ishlab chiqarilsa va u bir mamlakatda yig'ilib pirovard tovarga keltirilsa, bunday ishlab chiqarish baynalminallashuvning qaysi turiga mansub?

6) Yil davomida eksport miqdori - 8, yillik yalpi ichki mahsulot - 40 bo'lsa ekspert kvotasini toping.

7) Yil davomida eksport - 8, import -10, yalpi ichki mahsulot - 50 bo'lsa tovarlilik indeksini (indeks tovarnosti) toping.

8) Quyidagi operatsiyalarning qaysi biri O'zbekiston iqtisodiyoti nuqtai nazaridan kapital eksportiga tegishli.

a) O'zbekiston Milliy Banki Tojikiston yirik kompaniyasiga 100 ming \$ dollar ssuda berdi.

v) O'zbekiston importeri Rossiya «Zil» zavodidan olingan ehtiyot qismlarni to'lash uchun yirik Rossiya bankidan qisqa muddatli qarz oldi;

g) Toshkentdagi konditer fabrikasi Rossiyaning shokolad ishlab chiqaruvchi korporasiyasining aksiyalarini sotib oldi.



# Валюта

- жахон бозорида, давлатлар ўртасида пул вазифаларини бажарувчи, давлатларнинг миллий пул бирлигидир. Масалан, Америка қўшма Штатлари "доллари", Буюк Британия "фунт стерлинги", Канада "доллари", Франция "франки", Германия "маркаси" ва шу кабилар.

## Savollar

- 1) Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?
- 2) Erkin savdo hududlarining mohiyatini tushuntiring. Bunday tuzilmalarning integratsiyalashuv jarayonidagi o'rnini qanday?
- 3) Bojxona ittifoqi va to'lov ittifoqi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
- 4) Umumiy bozorning amal qilish tamoyillari qanday va bugungi kunda uning faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar talab qilinadi?
- 5) Integratsiyaning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misollar keltiring.
- 6) Xalqaromehnattaqsimotini mutloq va qiyosiy ustunlik nazariyasidan foydalanib tahlil qiling. Qiyosiy ishlab chiqarish xarajatlari nima?
- 7) Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi yana qanday nazariyalarni bilasiz? Bu nazariyalarning afzal va kamchilik tomonlarini taqqoslang.
- 8) O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsating.
- 9) Mamlakatimizning keyingi yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyatiga baho bering.
- 10) Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi? Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
- 11) Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.
- 12) Protektsionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.
- 13) Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.
- 14) Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?
- 15) Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi? Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

## Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Mc Connell, Brue. Economics. 17<sup>th</sup> edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2009.
2. N. Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA 2014.
3. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009.
4. O'lmasov A., Vaxobov A.B. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. – 480 bet.
5. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.B. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 728 bet.

### Qo'shimcha adabiyotlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012-40b.
7. O'zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik to'g'risida”gi qonuni. 2001y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. Toshkent. 2017y.
9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar , № 11
10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston” NMIU, 2017, - 47 b.
12. Mirziyoev Sh.M. buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston” NMIU, 2017, - 485 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda.
14. В.Д.Камаев, М.З.Ильчиков, Т.А.Борисовская. Экономическая теория. Краткий курс: учебник. – М.:КНОРУС, 2010. – 384 стр.
15. Камаев В.Д., Ильчиков М.З. Экономическая теория. Краткий курс: учеб. М.: КНОРУС, 2010. – 384с.
16. Нуреева. Р.М. Национальная экономика: учеб. М.: ИНФРА – М, 2010. – 655с.
17. Экономическая теория / под.ред. Добрынина А.И., Трасевича Л.С. учеб. СПб.: Питер, 2010. – 560с.
18. Экономическая теория. Микроэкономика – 1,2: учеб / под.общ.ред. Журавлева Г.П. М.: Дашков и К, 2009. – 934с.
19. Экономическая теория. Микроэкономика – 1,2. Метаэкономика. Экономика трансформаций: учеб. под.общ.ред. Журавлева. Г.П. – М.: Дашков и К, 2009. – 920с.
20. Экономическая теория.: Учебник. /И.К.Станковская, И.А.Стрелец. 3-е изд., испр. – М.: «Эксмо», 2009. – 448 с.
21. Экономика.: Учебник. /Самуэлсон Пол Э., Нордхаус Вильям Д. 18-е изд.: Пер с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2009. – 1360 с.
22. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник. /Макконнел К.Р., Брю С.Л. 17-изд. - М.: ИНФРА-М, 2009. – 916 с.

23. Экономическая теория. Микроэкономика-1,2: Учебник. /Под общ. ред. Заслуженного деятеля науки РФ, Г.П.Журавлевой. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: «Дашков и К», 2008. – 934 с.

24. Носова С.С. Экономическая теория. Элементарный курс: учеб.пособ. М.: КНОРУС, 2010. – 510с.

25. Гукасян Г.М. Экономическая теория: ключевые вопросы: учеб.пособ. М.: ИНФРА-М, 2010 – 224с.

#### **Internet saytlari**

1. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
3. [www.norma.uz](http://www.norma.uz).
4. [www.minfin.uz](http://www.minfin.uz).
5. [www.wto.uz](http://www.wto.uz).
6. [www.imf.uz](http://www.imf.uz).
7. [www.economy.uz](http://www.economy.uz).

